

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

Филология факультети
Инглиз тили ва адабиёти кафедраси

«Ҳимояга рухсат этилсин»

Факультет декани

_____ А.А.Хайдаров

«_____» _____

4-курс талабаси

_____нинг

**«INGLIZ VA O`ZBEK TOPISHMOQLARINING KELIB CHIQISH
GENEZISI, SHAKLLARI, TURLARI VA MAZMUNI» мавзусидаги**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

5220100-Филология (инглиз тили) таълим йуналиши

Илмий раҳбар: _____

Такризчи: _____

Бухоро – 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	2b
I BOB. INGLIZ VA O`ZBEK TOPISHMOQLARINING KELIB CHIQISH GENEZISI, SHAKLLARI, TURLARI VA MAZMUNI.....	5-34b
1.1. Jahon topishmoqlar olamida ingliz topishmoqlarining tutgan o`rni.....	5b
1.2. O`zbek folklorshunosligida topishmoqlarning ahamiyati va xususiyatlari.....	18b
II BOB. INGLIZ VA O`ZBEK TOPISHMOQLARIDA UY-RO`ZG`OR BUYUMLARINING IFODALANISHI.....	35-63b
2.1. Ingliz xalq topishmoqlarida uy-ro`zg`or buyumlarining aks ettirilishi.....	35b
2.2. O`zbek uy-ro`zg`or buyumlari tasvirlangan topishmoqlarda xalqning ijtimoiy hayoti va turmush tarzi talqini.....	44b
2.3. Ingliz va o`zbek uy-ro`zg`or buyumlari tasvirlangan topishmoqlardagi umumiylik va xususiyliklar.....	54b
XULOSA.....	64b
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	68b

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning bebaho boyligi, ajdodlardan avlodlarga qoldirib kelayotgan ko'p asrlik turmush tarzi, hayoti aks ettirilgan xalq og'zaki ijodi namunalari orasida topishmoqlar, jumboqlar alohida o'rin tutadi. Topishmoqlar xalqning orzu umidlari, narsa-hodisa, voqelikka bo'lgan munosabati, tasavvur dunyosi eng muhimi voqelik tahliliga bag'ishlangan mushohada va mulohaza yotadi. Topishmoqlar, albatta, xalqning tarixiy madanyati va ma'naviyatini ko'rsatib beradigan ma'naviy merosdir. Barchamizga ma'lumki, Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori¹ qabul qilingandan so'ng, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish davr talabiga aylandi. Chet tillarini o'rganishga qaratilgan e'tibor va talabni inobatga olgan holda ingliz va o'zbek topishmoqlarida uy-ro'zg'or buyumlarini o'zaro solishtirib, ularning umumiy va xususiy jihatlarini tahlil qilish hozirgi kunning dolzarb vazifasidir.

Xalq og'zaki ijodida nomi sir saqlangan holda obrazli ifodalar bilan berilib turli topishmoqlar, jumboqlar yaratiladi. Topishmoqlar javobini topish, aniqlash esa insonni kengroq fikrlashga, aqliy mehnatga undaydi.

Hozirgi kunda ingliz tili 1-sinf dan boshlab ta'lim tizimida joriy etilganligi bu tilni o'rgatishga katta ahamiyat berilayotganligi isbotidir. Topishmoq aytish asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisasi haqidagi tushunchalarni va tasavvurlarini idrok va mulohaza qobilyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki unda uy-ro'zg'or buyumlari ifoda etilgan ingliz va o'zbek topishmoqlari qiyoslab o'rganilgan.

¹Karimov I.A "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori. –T., 2012. "Ma'rifat" gazetasi № 99. –B. 1-2.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. Ingliz va o'zbek topishmoqlari ishimizning asosiy obyekti hisoblansa, bitiruv malakaviy ishimizning predmeti uy - ro'zg'or buyumlarining aks ettirilishi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi o'zbek va ingliz xalq topishmoqlarida ro'zg'or predmetlarini aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot maqsadi oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yishni taqozo etdi:

- Ingliz xalq topishmoqlari tarixi, ularning turlari va qo'llanishi to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, ularni o'rganish;
- Ingliz xalq topishmoqlarida ro'zg'or buyumlarining aks ettirilishini yoritib berish;
- O'zbek xalq topishmoqlarining genezisi, turlari va ishlatilish ahamiyatini o'rganish;
- Ro'zgo'r buyumlarini o'zbek xalq topishmoqlarida aks ettirilishini tahlil qilish;
- Ingliz va o'zbek topishmoqlarida uy-ro'zg'or buyumlarining ifodalanishini o'zaro solishtirib, ulardagi umumiy va farqli jihatlarni topish, tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganligi darajasi va yangiligi. Z. Husainova, Z. Razzoqov, O. Safarov, O. Imomov o'zbek xalq og'zaki ijodi va ularda uy-ro'zg'or buyumlari talqinini o'rgangan bo'lsalar, E. Taylor, W. Pepicillo, Tomas A. Greenlar ingliz topishmoqlari ularning turlari, tarixi va shuningdek, uy-ro'zg'oz buyumlarini aks ettirishini o'rganib bu haqida izohlar berishgan.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ingliz va o'zbek topishmoqlaridagi umumiylik va xususiylik, o'ziga xosliklar o'rganilib, ochib beriladi.

Ishning nazariy asosi. Bitiruv malakaviy ishimizning nazariy asosini Z. Husainovanning "O'zbek xalq topishmoqlari", T. Mirzayev "O'zbek xalq ijodi xrestomatiyasi", O. Safarovning "O'zbek xalq og'zaki ijodi" kabi asarlar,

Nabijon Ermatovning "To`qson to`qqiz topishmoq" to`plami hamda en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle kabi internet saytlari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy va nazariy ahamiyati. Hozirda tillarni xususan, ingliz tilini o`rganish kengayib borayotgan bir davrda, ushbu malakaviy birituv ishi katta amaliy va nazariy ahamyat kasb etishi tabiiy. Undagi tahlillar, tadqiqotlar natijasida yuzaga kelgan fikrlar oliy o`quv yurtlarining adabiyotshunoslik yo`nalishlari bo`yicha o`qitiladigan fanlar: adabiyotshunoslik, qiyosiy tipologiya, tarjimashunoslik va stilistika kabi fanlarda va maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Maskur bitiriv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining I bobi ingliz va o`zbek topishmoqlarining kelib chiqish genezisi, shakllari, turlari va mazmuniga bag`ishlangan bo`lib, ikki paragraf asosida ochib beriladi.

"O`zbek va ingliz topishmoqlarida uy-ro`zg`or buyumlarining ifodalanishi" deb nomlangan ikkinchi bob uch paragraf asosida yoritib beriladi.

Tadqiqot natijalari va umumlashmalari xulosa qismida bayon etilgan hamda har bir manba foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatida keltirilgan.

I BOB. INGLIZ VA O`ZBEK TOPISHMOQLARINING KELIB CHIQISH GENEZISI, SHAKLLARI, TURLARI VA MAZMUNI

1.1. Jahon topishmoqlar olamida ingliz topishmoqlarining tutgan o`rni

Folklor xalq og`zaki ijodi- xalqaro termini. U hamma millatda mavjud: har xalqning etnik tuzilishi, kelib chiqishi tarixi va madaniyatini hisobga olgan holda o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi. Topishmoqlar xalq og`zaki poetik ijodining kichik janri sifatida har bir xalq ijodida o`z aksini topgan. Shunday ekan, dunyodagi har bir xalqning o`ziga xos va o`ziga mos folklori va folklorning janrlari mavjuddir. Ingliz adabiyotida topishmoqlar ma`nosiga har xil izoh beriladi:

- a) hal qilinishi yoki taxmin qilinishi kerar bo`lgan, sirli, yo`ldan adashtiruvchi savollar;
- b) tushinilishi qiyin bo`lgan kimdir yoki nimadir;¹
- c) topishmoq – o`yin sifatida o`ynash mumkin bo`lgan, tushunilishi qiyin bo`lgan savollar (Oxford Dictationary);²
- d) topishmoq – hazil-mutoyibaning yengil shakli, qah-qah kulgiga sabab bo`lishi maqsadida o`xshashlik va no o`xshashliklar bilan o`ynash. Har millatda paydo bo`ladi, har bir aytilgan narsa kabi qadimiy (Marina Warner).³

Ingliz tilida topishmoq ma`nosini ifodalovchi “riddle” so`zi aslida “read” o`qimoq so`zidan olingan. Qadimgi ingliz tilida hozirgi “read” so`zi “readen” shaklida berilgan, uning asliy ma`nosi “tushuntirmoq, taxmin qilmoqdir”.

Topishmoqlar ingliz tili ta`limida muhim vazifalarni bajarishi ta`kidlangan, ya`ni jamiyatshunoslik fanini puxta o`rganishda, vaqtni foydali va maroqli o`tkazishda muhim rol o`ynaydi.⁴

Ingliz topishmoqlarining bir necha turlari mavjud:

¹ en.wikipedia.org/wiki/Riddle

² Oxford Advanced Learner's dictionary. Oxford University Press,1980. -P.1306.

³ Eleonar Cook . Enigmas and Riddles in literature. Cambridge University Press,2009.- P.26-27.

⁴ J. M. Y. Simpson, Stephen Roud .Oxford Dictionary of Old Folklore. Oxford University Press, Incorporated. 2003.

I. Jumboq (puzzles) – bu shunday o`yinki, unga javob topish puxta va teran fikrlashni talab etadi.

1. Mary`s mum has four children.

The first child is called April.

The second May.

The third June.

What is the name of the fourth child? (Mary)

Mary`s mothers fourth child was Mary herself.¹

II. Conundrum – mug`ombirona yashiringan so`zlarni o`z ichiga oladi, javobi topilgandan so`ng esa kulgu ko`tariladi. Unda “pun” stilistik vositasi ko`p ishlatiladi.²

2. – “What is the difference between a jeweler and a jailer?”

– “One sells watches and the other watches cells.”³

III. Quiz esa musobaqa o`yin, unda insonlarning bilimini sinash uchun savollar beriladi. Quiz o`yinini o`ynash uchun yetarlicha umumiy bilimga ega bo`lish lozim.

3. What is converted into alcohol during brewing? (Sugar)

4. For which fruit is the US state of Georgia famous? (Peach)⁴

IV. Enigma-metaforik topishmoqlar. Bunda topishmoqning yechimini topish murakkab bo`lib, kishidan mulohaza yuritishni talab etadi. Jonathan Swift ijodada ana shunday enigmalar uchraydi:

5. I with borrowed silver shine,

What you see is none of mine.

First I show you but a quarter,

Like the bow that guards the Tartar;

Then the half, and then the whole,

Ever dancing round the pole;

¹ Riddle of the Sphinx. Penguin Book, 2007. –P.134.

² Eleonar Cook . Enigmas and Riddles in literature. Cambridge University Press,2009.- P.26-27.

³ www.catb.org/esr/riddle-poems.html

⁴ en.wikipedia.org/wike/Quiz

And true it is, I chiefly owe

My beauty to the shades below. (Moon)¹

V. Ingliz topishmoqlarining tuzilishi besh qismdan iborat bo`ladi:

- a) berilgan shart (topishmoqning tub mohiyati);
- b) o`zgarmas haqiqat;
- c) yashiringan o`zgarish;
- d) berilgan o`zgarish;
- e) yashiringan so`z (javob);

Ingliz tilidagi “topishmoq”lar bilan bog`liq ikki so`z borki, ularni bir-biridan ayro tushunish muhim.

“Riddlers” – “topishmoq tuzuvchi, tayyorlovchi kishi” ma’nosini bildiruvchi so`z hisoblanib, topishmoq janri takomillashgan sari bu so`z zaruriyatga aylanib qolgan. Chunki, topishmoq folklorning ajoyib, ajralmas qismi hisoblanar ekan, u asrlar davomida xalq og`zaki ijodi bo`lib kelgan. Keyinchalik, ular bir qolibga solina boshlangan va nazariyalar ishlab chiqilgan. Toposhmoq tuzuvchilar paydo bo`lgan, topishmoq janri bilan shug`ullanuvchi olimlar ko`paygan.

“Riddlees” esa dunyo qarashini, bilimini sinab ko`ruvchi kishi ya’ni, topishmoq javobini topuvchi inson hisoblanadi.

VI. Ingliz topishmoqlari qofiyaning ishlatilishiga ko`ra asosan ikki xil bo`ladi:

- a) To`liq qofiya (full rhyme);
- b) Tugallanmagan qofiya (incomplete rhyme);

To`liq qofiyali topishmoqlarda qofiya har bir misrada shuningdek, misralar ichida ham bo`ladi.

6. As soft as silk, as white as milk,

As bitter as gall, a thick green wall,

And a green coat covers me all. (A walnut)²

¹ Paul A.Cantor.”A Riddle Wrapped in enigma” article,2014. –P.12.

² Thai Thi Thu Trang .Invastigation into stylistic devices commonly used in riddle. University of Danang, 2011.- P.16.

a) To'liq qofiyali topishmoqlarning yana bir turi borki, uni ba'zan "Hink-Pink, Hinky-Pinky, Hinkity- Pinkity" deb atashadi. Bunda topishmoqning javobi bir-biriga mos ohangdosh yoki qo'shma so'zlardan iborat bo'ladi.

7. What do you call a chubby dog? (A round hound)¹

What's a glove for a small cat? (A kitten mitten)

Topishmoqlarning qofiyadosh turlari o'z navbatida yana bir necha turga bo'linadi:

1. Ichki qofiya (internal rhyme);
2. "Masculine" bunday turdagi qofiyali topishmoqlarda qofiya misralarning doim bir bo'g'iniga to'g'ri keladi;
3. "Feminine" qofiyali topishmoqlar. Yuqoridagi topishmoq turiga o'xshab ketadi, ammo bunda o'xshash qofiyadosh so'zlarda ikki yoki undan ortiq bo'g'inlarda bir xil bo'lib keladi.

b) Tugallanmagan qofiyali topishmoqlarga esa quyidagilar misol bo'ladi.

8. What is the difference between a coat and a baby?

- One you wear, one you were.²

Bizga ma'lumki, ingliz tilida stilistik vositalar uch turga bo'linadi:

- a) fonetik;
- b) leksik;
- c) sintaktik - stilistik uslublar.

Ingliz topishmoqlarida eng ko'p qo'llaniladigan stilistik vositalardan biri bu leksik stilistik vositadir. Shuningdek, fonetik va stilistik vositalardan ham topishmoqlar jozibadorligini ta'minlash uchun foydalanilgan.

VII. "Simile"- o'xshatish stilistik uslubida ikki buyum -dek, - day ("As...like") ma'nosidagi qo'shimchalar orqali qiyoslanadi. Ingliz tili topishmoqlarida "simile"ning vujudga kelishi uchun vositalar ikki xil bo'ladi:

1) Teng qiyoslanish "like... as", "as...as" so'zlari orqali ifodalanadi.

¹ Thai Thi Thu Trang. Investigation into stylistic devices commonly used in riddle .University of Danang, 2011.- P.13.

² Thai Thi Thu Trang .Investigation into stylistic devices commonly used in riddle".University of Danang, 2011.- P.14.

2) Noteng qiyoslanish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- a) qiyosiy daraja;
- b) orttirma daraja;
- c) birgalikda o`tib borish (parallel increase).

9. Alive without breath, as cold as death,
Clad in mail never clinking,
Never thirsty, ever drinking. (Fish)¹

Ingliz tilidagi topishmoqlarda ham boshqa barcha tillar topishmoqlaridagi sermahsul vosita hisoblanmish, metafora keng qo`llaniladi.

VIII. Metaforaning topishmoq uchun muhimligi haqida Aristotel o`zining “Ritorika” va “Poetika” asarlarida izohlar qoldirib ketgan.<sup>2</sup> Aristotel metafora haqida shunday deydi: “Yaxshi metafora topishmoq orqali yuzaga keladi” (Ritorika-1405), “Topishmoqning tub mag`zida ifodalanayotgan faktlar haqiqatga to`g`ri kelmaydigan yo`llar bilan ifodalanadi. (Poetika-1458)

10. What grows without roots? - Human being.

11. What has two hands and a face, but no arms or legs? - A clock.³

IX. “Paradox Riddles” – “paradox” termini yunon tilidan kelib chiqqan bo`lib, doimiy mavjud bo`lgan fikrlarga qarshi fikr berilib, adashtirish maqsadida o`zida haqiqatni yashiradi.

12. Which room has no door, no windows, no floor and no roof? - A mushroom!

X. “Personification” – shaxslantirish yoki majoz orqali topishmoq tuzishda insonga xos xususiyatlar mavjudot yoki narsa-buyumlarga ko`chirib tasvirlanadi.

13. What Am I

It can speak

With its hard metal tongue

¹ <http://goodriddlesnow.com/riddles/view/428>

² <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags>

³ <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags>

But it can not breathe

For it has no lung

What is it? -A bell¹

Jahon folklorshunosligida topishmoq atamasi qachon va qayerda vujudga kelganligi haqida aniq ma'lumot yo`q. Izlanishlar shuni ko`rsatadiki, topishmoqlar tarixi ming yillar oldinga borib taqaladi. Yaponiya, Xitoy va Tibet davlatlaridagi qadimiy ibodatxona devorlarida o`yilgan yozuvlar jumboqli savollar ekanligi aniqlangan. Hozirgacha saqlanib qolgan eng qadimiy ingliz topishmoqlari Mesopatamiyadan topilgan. Shumerliklar tomonidan loytaxtachada yozilgan ingliz topishmoqlari esa milloddan avvalgi 235-yilda Lagashdan topilgan.²

14. "Its canal is A, its god is B, its fish is C, its snake is D. You are looking for a city that lies on canal A, whose local god is B and whose symbolic animals are C and D.

15. "There is a house. One enters it blind and comes out seeing. What is it?"³

Topishmoqning tarixiy ildizi Plato hamda Aristotel ijodiga borib taqaladi. Qadimgi Gretsiyada topishmoqlar aqlni charxlaydigan, zehnni o`tkiraydigan hamda donishmandlikni shakllantiradigan asosiy qurollardan biri bo`lgan. Topishmoqlar qadimda falakdan kelgan farmonlar bilan uzviy bog`langan. Xalq buni faqat maxsus bilimli insongina tushuna oladi, deb hisoblagan. Antik davrda Gretsiyada go`yo har qanday savolga tangri nomidan qat'iy javob beruvchi shaxs deb nomlanuvchi ruhoniy va kohinlar "tanfi" farmonlarini ko`proq topishmoq, jumboq tarzida bayon qilganlar. Grek mifologiyasidagi eng mashhur topishmoq Diniksning Zibis fuqarolaridan so`ragan topishmog`idir:

16. "What has one voice becomes four footed, two footed and three footed?"

Jasur Odipus topishmoqning javobini quyidaqicha ifodalab beradi:

¹ <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags>

² www.innovateus.net/innopedia/history-riddles

³ Anja Goritzka. "History of the Riddle".article.2015. –P.21.

“Man, who crawls on all four legs as a baby, then walks on two legs as an adult, and finally needs a cane in old age”¹

Qadimgi Sanskrit tilida yozilgan Rigveda qoʻlyozmasida ham, jumboqlar yozib qoldirilgan. Har bir millatda sheʼriy topishmoqlar anʼanasi mavjud boʻlgani kabi ingliz tilida ham anʼanaviy sheʼriy topishmoqlar Anglo-Saksonlar, Vikinglar va Teutonlarga borib taqaladi. Bu xalqlar ingliz tarixida Qora asr (Dark Ages) deb nomlangan davrda yashab, 500 yildan ortiqroq vaqt ichida vaqti-vaqti bilan gulxan atrofida oʻtirib topishmoq oʻyinlari oʻynashgan.

Zamonaviy ingliz tiliga oʻgʻirilgan ana shunday topishmoqlardan birini koʻrib chiqamiz:

17. “I am wonderful help to women,
The hope of something to come. I harm
No citizen except my slayer.
Rooted I stand on a high bed.
I am shaggy below. Sometimes the beautiful
Peasant’s daughter, an eager-armed,
Proud woman grabs my body,
Rushes my red skin, holds me hard,
Claims my head. The curly-haired
Woman who catches me fast will feel
Our meeting. Her eye will be wet.”²

Bu xalqlarga tegishli topishmoqlarning bir qanchasi bizgacha yetib kelgan. Anglo-Saksonlarning 90 dan ortiq topishmoqlari “Exeter-Book” qoʻlyozmasida jamlangan. Bu kitobning eng qiziq tomoni shundaki, u oʻsha davrning davlat tili hisoblanmish, lotin tilida emas, balki omma tili – ingliz tilida yozilgan. Bundan shunday xulosaga kelinadiki, kitobdagi topishmoqlar oʻqimishli kishilar tomonidan emas, balki oddiy xalq tomonidan ogʻzaki tarzda vujudga kelgan.

¹ www.innovateus.net/innopedia/history-riddles

² <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags>

18. A wonder on the wave / water became bone. (Ice on a lake or seashore)

19. I am fire-fretted / and I flirt with Wind;

my limbs are light-freighted / I am lapped in flame.

I am storm-stacked / and I strain to fly;

I'm a grove leaf-bearing / and a glowing coal. (A beam of wood)¹

Shu o'rinda, "Exeter Book" kitobi hamda unga kiritilgan topishmoqlar haqida kengroq ma'lumot berishni afzal ko'rdik. Ushbu kitob yana *Exeter Cathedral Library MS 3501, Codex Exoniensis* nomlari bilan ataladi. Kitobda jamlangan topishmoqlar turli mualliflar tomonidan to'plangan. Ma'lumotlarga asosan, topishmoqlar 700-yillarda monastrlarda mashhur bo'lgan paytlarda to'plana boshlangan. Ushbu kitob *Exeter* cherkoviga 1072-yilda birinchi *Exeter* ruhoniysi *Leofrik* tomonidan taqdim qilingan. Kitob qadimgi ingliz adabiyoti haqidagi hozirgacha saqlanib qolgan eng katta hajmdagi manba hisoblanadi. Topishmoqlar kitobda uch guruhga bo'lib berilgan. 1-59 gacha bo'lgan topishmoqlar birga guruhlangan. 60- topishmoq hamda 30-topishmoqning ikkinchi shakli juftlik shaklida ifodalangan. 61 dan 95 gacha bo'lgan topishmoqlar qo'lyozmaning oxirida berilgan. Ular Anglo-Saksonlarning ijtimoiy hayotiga asoslangan. Ayrim topishmoqlar o'zida kema jihozlari, urush qurollari, aslahalarini aks ettirsa, boshqalari monastrlardagi hayotni ifodalaydi.

"Exeter-Book" qo'lyozmasini zamonaviy tilga tarjima qilish, tahlil qilish 1842-yilda Benjamin Torp tomonidan boshlangan. 1933-yilda "Exeter-Book" qayta nashr qilingan va "The Exeter Book of Old English Poetry" nomini olgan. Kitobning qayta nashrida R.W.Chamber, Maxi Foster va Robinlar faol ishtirok etishgan.

XIX asrda Ingliz topishmoqlarining yangi sheredlar deb nom olgan turi paydo bo'lgan. Ularning boshqa topishmoqlardan farqli jihati shundaki, ularda tartib sonlar ishtirok etadi. Mazkur yangi atama XVIII asrning ikkinchi yarmidan fransuz tilidan ingliz tiliga kirib kelgan.

¹ en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle

Ingliz tilida sherdlarning ilk namunalari 1776-yilda *Ledi Boskaven* (*Lady Boscawen*) tomonidan yozilgan. Dastlabki sherdlar qofiyalangan shaklda boʻlgan. Har bir misra boshi “my first”, “my second” soʻzlari bilan boshlanib, “my whole” birikmasi bilan yakunlangan. Sherdlar Jeyn Ostenning “Emma” asarida oʻziga xos rol oʻynagan.

Bunday shakldagi sherdlar jurnallar, kitoblarda paydo boʻla boshladi. “*Charade*” tushunchasi ularni ijro etish mobaynida mashhur boʻldi. Ijro etilgan sherdlarning namunalari Uilliam Tekereyning “Vanity Fair” hamda Sharlotta Brontening “Jane Eyre” asarlarida berilgan. Sherdlarning dastlabki namunalari nasriy tuzilishga ega edi. Viktoriya davridan boshlab ularning sheʼriy shakldagilari ommalasha boshlagan. Masalan:

20. My first is in tea but not in leaf,

My second is in teapot and also in teeth,

My third is in caddy but not in cosy,

My fourth is in cup but not in rosy,

My fifth is in herbal and also in health,

My sixth is in peppermint and always in wealth,

My last is in drink, so what can I be?

I’m there in a classroom, do you listen to me? (Teacher)¹

Folklorshunos olim G. P. Murdok 1950-yilda topishmoqlarni bir necha kategoriyalarga ajratgan. Undan bir yil soʻng yaʼni 1951-yilda Arkor Teylor oʻzining mashhur “English Riddles from Oral Tradition” kitobida qiyoslash – taqqoslashga asoslangan holda topishmoqlarni quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

1. Jonli mavjudodlarni taqqoslash;
2. Hayvonlarni taqqoslash;
3. Bir necha hayvonlarni taqqoslash;
4. Odamlarni taqqoslash;

¹ http://dspace.library.cornell.edu/bitstream/1813/2271/1/Ontogenesis_of_Metaphor

5. Bir necha odamlarni taqqoslash;
6. O`simliklarni taqqoslash;
7. Buyumlarni taqqoslash;

A.Teylorning keyingi to`rt tasnifi esda qolarli narsalardan ko`ra detallarning ro`yxati bo`yicha klassifikatsiya qilishga qaratilgan.

8. O`xshatishlar ro`yxati;
9. Atamaning tuzilishi va vazifasi;
10. Atamaning tuzilishi yoki rangi;
11. Atamaning tuzilishi yoki harakati.¹

J. R. Tolkien garchi dunyoga mashhur “Uzuklar hukmdori” (“Lord of the Rings”) asari bilan tanilgan bo`lsa-da, uning professorlik unvoni aslida Anglo-Saksonlar tili bo`yicha qilgan tadqiqotlari uchun berilgan. U Anglo-Saksonlarning tili va she`riyatini o`rganish chog`ida qadimiy topishmoqlarga duch keladi va ularni tahlil qiladi. Shunday qilib, tadqiqotlarni o`z asarlarida qo`llaydi. “Hobbitlar” (“Hobbits”) asarida Bilbo Beggins Misti tog`ida Gollum bilan topishmoq o`ynashgani tasvirlangan.

21. Thirty white horses on a red hill:

First they champ, then they stamp,

Then they stand still.” – What is it?

Answer: Teeth in your mouth²

Bilbo topishmoq javobini topadi va Golum yo`lni ko`rsatadi. Bu orqali Bilbo Begginsning xarakteri ochib beriladi, uning xusiyatlaridan biri bo`lmish topqirlik, zukkolik namoyon etiladi. J.R.Tolkien asaridagi topishmoqlarni Anglo-Saksonlarning kitobi “Exeter-Book” asaridan oladi.

22. What has roots as nobody sees,

Is taller than trees,

Up, up it goes

And yet never grows?

¹Anchor Taylor. English Riddles from Oral Tradition. University of California Press, 1995. -P.300.

² J.R.R. Tolkien, The Hobbit: “ Riddlers in the dark”. 1940. -P.87.

Answer: A mountain.

23. Voiceless it cries,
Wingless flutters,
Toothless bites,
Mouthless mutters.

Answer: The wind.

24. An eye in a blue face
Saw an eye in a green face,
“That eye is like to this eye”
Said the first eye,
“But in low place,
Not in high place.”

Answer: Sun on a field of daisies.

25. It cannot be seen, cannot be felt
Cannot be heard, cannot be smelt.
It lies behind stars and under hills,
And empty holes it fills.
It comes first and follows after,
Ends life, kills laughter.

Answer: Darkness.

26. A box without hinges, key, or lid,
Yet golden treasure inside is hid.

Answer: An egg.

27. Alive without breath,
As cold as death;
Never thirsty, ever drinking,
All in mail, never clinking.

Answer: A fish.

28. No-legs lay on one-leg,

Two-legs sat near on three-legs,
four legs got some.

Answer: Fish on a little table, man at table sitting on a stool, the cat ate the bones.

29. This thing all things devours:

Birds, trees, beasts, flowers;
Gnaws iron, bites steel;
Grinds hard stones to meal;
Slays king, ruins town,
And beats high mountain down.

Answer: Time.¹

Turli millatlarda topishmoqlar turlicha bo`lgan. Masalan, Skandinaviya xalqi murakkab topishmoqlar topishga usta bo`lishgan. Shetland va Faroe orollari xalq topishmoqlaridan misollar keltiramiz:

30. Four hang, four walk,
Four stand skyward,
Two show the way to the field
And one comes shaking behind

Answer: A cow. Four teats hang, four legs walk, two horns and two ears stand skyward, two eyes show the way to the field and one tail comes shaking (dangling) behind.

An'anaviy ingliz topishmoqlari bilan zamonaviy ingliz topishmoqlari keskin farq qiladi. An'anaviy ingliz topishmoqlari qisqa, *boshqotirmali* va *she'riy shaklda* bo`lgan. Ularda tasvirlanayotgan predmetlar sirli tarzda, ba'zida esa o`yinlar shaklida berilgan.

Exeter Book kitobida berilgan aksariyat topishmoqlar juda murakkab ta'riflar asosida berilgan. Zamonaviy ingliz topishmoqlarining aksariyat qismi

¹ J.R.R. Tolkien . The Hobbit: "Riddlers in the dark". 1940. -P.88.

yumoristik ruhda bo`lib, *pun* (so`z o`yini) shaklida tuzilgan. Ular bolalarning chaqqonligini, topqirligini oshirish uchun qo`llaniladi.

31. What is it that can be full but will never overflow?

MOON: The word “overflow” is the red herring that leads you to misunderstand “full”.

Zamonaviy ingliz topishmoqlarining aksariyatini ko`p bandli bo`lmagan topishmoqlar tashkil etadi. Ko`pchilik topishmoqlar 1 misradan iborat bo`ladi.

32. I have a spine but no bones? (A book)¹

Bu turdagi topishmoqlarning katta qismini savol-topishmoqlar tashkil etadi.

33. What do you break by saying just one word?

Answer: Silence.

34. What lives on its own substance and dies when it devours itself?

Answer: A candle.

Bir misradan ko`p katta hajmli topishmoqlar ham mavjud.

35. I can sizzle like bacon,

and I come from an egg.

I have plenty of back bone,

but lack a good leg.

I peel like an onion,

but I`m always whole.

I`m long like a flag pole

yet fit in a hole. -Snake²

Zamonaviy topishmoqlar va an`anaviy topishmoqlarning yana bir farqli jihati shundaki, hozirgi ingliz topishmoqlarining aksariyatini nasriy shakldagi topishmoqlar tashkil etadi:

36. I have four feet but not a shoe, a head but not a thought for you (bed)

Yuqoridagilardan ma`lum bo`ladiki, ingliz xalq og`zaki ijodining ajralmas qismi topishmoq uzoq tarixga ega va hozirgacha xalq uchun ahamiyatli

¹ <http://goodriddlesnow.com/riddles/view/428>

² <http://goodriddlesnow.com/riddles/view/428>

janrlardan hisoblanadi. Topishmoqlarning murakkab xususiyatga egaligi ularning she'r kabi qofiyalanishi hamda stilistik vositalar orqali shakllantirilganligida namoyon bo'ladi.

1.2. O'zbek folklorshunosligida topishmoqlarning ahamiyati va xususiyatlari

“Folklor” termini birinchi marta XIX asr tadqiqodchisi Uilyam Tomas tomonidan 1864 yilda qo'llangan bo'lib, u ikki so'zdan iborat: “folk” (folk) - xalq, “lor” (lore)- bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni, “xalq bilimi”, “xalq donishmandligi” demakdir¹.

“Folklor” - xalqaro termin bo'lib, turli mamlakatlarda turlicha qo'llanadi. Masalan, Angliya va AQShda xalq badiiy faoliyatining barcha turi (poetik ijod, muzika, raqs, o'yin, teatr, tasviriy va amaliy san'at), shuningdek, irim-sirim, ishonch-e'tiqod va urf-odatlar shu termin bilan ataladi. O'zbek tilida “folklor” deganda, asosan, xalq poetik ijodi tushuniladi. Xalq san'atining boshqa turlari, masalan, musiqa uchun “musiqa folklori” termini qo'llaniladi.²

Bunday bo'linishni folklorda ham qo'llash mumkin. Gap shundaki, folklor janrlarining ayrimlari turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilar esa, kuylash uchun mo'ljallangan bo'ladi. Binobarin, uning ayrim namunalarini yuqoridagi uch turning bittasiga ham kiritish mumkin emas. Mana shu holatlarni hisobga olib, o'zbek folklori janrlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin. O'zbek folklori asarlari avvalo ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Urf-odat va mavsum-marosimlar bilan bog'liq asarlar.
2. Turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan folklor janrlari.

Birinchi guruhga:

A) mehnat qo'shiqlari (xo'p-mayda, turey-turey, churey-churey, xush-xush va boshqalar);

B) mavsum qo'shiqlari;

¹ Abduraximov I. M. O'zbek topishmoqlari. – Toshkent: 1991. – B. 34.

² Razzoqov Z., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq poetik ijodi. – Toshkent: 1980. – B. 67.

V) marosim qo`shiqlari (tug`ilish, to`y, aza va boshqalar);

G) olqish, afsun va qarg`ishlar;

D) aytimlar kiradi.

Ikkinchi turga:

A) epik (doston, ertak, afsona, rivoyat, lof, latifa);

B) lirik (qo`shiq, ashula, terma);

V) dramatik (askiya, og`zaki drama);

G) kichik (maqol, topishmoq) janrlarni o`z ichiga oladi.

Hap bir janr o`z navbatida yana ichki turlarga bo`linadi. Masalan, topishmoqlar savol-jovob, chiston singari shakllarga bo`linishi mumkin. Folklor janrlari o`rtasidagi farqlarga qaramay, ular tarixan tarkib topgan yaxlit tizimdir. Bu tizimlar orasida topishmoqlar ham o`z o`rniga ega. Topishmoqlar jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi.

“Topishmoq” so`zi “top” buyruq fe’liga “ish-moq” yasovchilar qo`shilishi bilan chigal, murakkab, belgi-xususiyati yashirin berilgan biror noma’lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan.¹ Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba’zan matal, topar, cho`pchak kabi terminlar yuritilib kelingan topishmoq janri o`zbek folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda.

Shakli, vazifasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o`xshash ikki predmet, narsa va hodisadan jumboqlanib, ikkinchisiga o`xshash belgilar asosida uni topishga mo`ljallab she’riy yoki nasriy tuzilishda berilgan savol yoki topshiriqlar “topishmoq” deb yuritiladi.

“Topishmoqlar respublikamizning turli rayonlarida o`sha joylarning lokal xususiyatlari va shevasiga ko`ra, jumboq, jummoq, jumoq, topmacha, topar cho`pchak, top-top, top-top cho`pchak, matal, masala, ushuk kabi xilma-xil so`zlar bilan ham ifodalanadi. Ammo hozirgi paytda “topishmoq” yagona ilmiy-

¹ Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. –Toshkent: 2010. – B. 282.

adabiy termin sifatida to'la o'zlashdi, qolganlari esa, tor doiralarda va ayrim keksa kishilar nutqida ishlatiladigan bo'lib qoldi.

Topishmoqlar bir vaqtlar muayyan magik funksiyalarni ado etgan zamonlaridan boshlab, aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasiga aylangunga qadar murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Demak, topishmoq topuvchi biror xalqning og'zaki ijodi namunalaridan bo'lmish topishmoqlari bilan qiziqsa, shu xalqning milliy madaniy turmush tarzi mentalitetidan boxabar bo'ladi, yoinki, o'sha xalq mentalitetidan, milliy qadriyatlari-yu, dunyoqarashidan xabardor bo'lsagina, topishmoqlariga osonlik bilan javob topa oladi. Zero, "Xalq folklori mentalitet o'rganishning muhim manbai sanaladi".¹ Folklor san'ati va ulardagi tabiiylikning gavdalanishi o'sha millatga xos mentalitetga baho berishga imkon yaratadi. Xalqning o'tmish tarixiga oid ma'lumotlar berishiga ko'ra topishmoqlar tarixiy manbalar sirasidan joy oladi. "Tarixiy manbalar, xalq dostonlari u yoki bu millatning mentaliteti to'g'risida to'la ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'lgan asosiy manbalar qatoriga kiradi".²

Uzoq o'tmish davrlarda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli-tuman hodisalari haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'lu - biyobon, yer va osmon, quyosh va oy, yulduz va fasllar, chaqmoq va momaqalldiroq, hayvonot olami, oila-ro'zg'or jihozlari, dov-daraxt, mehnat qurollari va boshqalar haqida jamoa ijodining mahsuli bo'lib to'qilgan topishmoqlar avloddan-avlodga o'tib, katta va kichikka hayot, tabiat sirlari haqida o'ylashni, bilishni o'rgatib kelganligi bilan ahamiyatlidir.

Topishmoqlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurining mahsuli bo'lib, u narsa va hodisalar haqida ma'lumotlar beradi. Topishmoqlarning paydo bo'lishida inson o'z hayotida ko'rgan, o'zi yaratgan, yetishtirgan mahsulotlar,

¹Husainova Z. O'zbek xalq topishmoqlarining asosiy xususiyatlari va zamini. Fil.fan.nom.diss. – Toshkent:1967.

² G'oziev E. Umumiy psixologiya. –Toshkent: 2002. – B.56

o`zi sezgan, eshitgan hodisalarni poetik shaklda ifodalashning bir turidir. Topishmoq sodda, aniq, darak gap shaklida ifodalashning predmetlarga xarakterli belgilari vositasi bilan anglatib, javob talab qiluvchi gapdan iborat bo`ladi. Topishmoq “so`z obrazining kalitidir”.<sup>1</sup> Topishmoqning tarixi kishilik jamiyatining tarixi bilan chambarchas bog`liqdir. Shu sababli, dehqonchilik, chorvachilik, qurol-yaroqlar, tabiatdagi narsalar, o`simliklar, hayvonlar, hashorotlarni bilish kerak bo`ladi. Topishmoqning yashirinish xususiyati kishini uni topishga qiziqtirib qo`yadi.

Hozirgi paytda ham topishmoqlar o`zining tarbiyaviy xususiyatini yo`qotgani yo`q. U yoshlarning fikrlash qobiliyatini o`stirishga xizmat qiladi. Ularni ziyraklikka, sinchkovlikka, kuzatuvchanlikka, ma`lum bir poetik fikrni izlab topishga o`rgatadi.

1975-yilda “Turkiston viloyati gazetasi” ning birinchi sonida topishmoqlar, ikkinchi sonida esa qozoqcha tarjimasi beriladi. Yigirma yil o`tgandan keyin N.P.Ostroumov tomonidan 150 ta topishmoq nashr etiladi. Turon kutubxonasi xodimi Abdulla Nosirov tomonidan 600 topishmoqdan iborat to`plam tuziladi, ammo nashr etilmay qolib ketadi. 1929- yilda Ismoil Orifiy 115 ta o`zbek xalq topishmog`ini nashr ettiradi, lekin bu topishmoqda sheva xususiyatlariga ahamiyat berilmaydi.²

Topishmoqlarni to`plashda, hamma talablarga javob beradigan qilib yig`ishda folklorshunos Buyuk Karimovning xizmatlari katta. O`zbek topishmoqlarini to`plab ularning o`ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirgan holda kitob qilib chiqarishda Zubayda Husainova³ning xizmati beqiyos.

Topishmoqlar xalq og`zaki ijodining qadimiy janrlaridan bo`lib, uning aniq kelib chiqish tarixi haqida fikr bildirish qiyin. Shunday bo`lsa-da, ba`zi xalqlarda, jumladan, turkmanlarda topishmoqlarni navro`z oqshomi aytish

¹ Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. – Toshkent: 1966. – B.10.

² Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari. – Toshkent: 1991. – B. 35.

odatini G. Gurbonov tasdiqlaydi. Uyg`urlarda, ko`pincha, kuz va qish fasllarida kova (oshqovoq) pishirish paytida topishmoq aytish marosimi bo`lgan. Topishmoqni qish faslida kechalari aytish faqat o`zbeklarda bo`lmay, boshqa ko`pgina turkiy xalqlarda ham uchraydi. Topishmoqni erkagu -ayol, katta-yu kichik baravar aytishgan. Topishmoq aytishish jarayonida kichiklar ulardan hozirjavoblikni o`rgangan. Topishmoqning javobini topish uchun aytilgan matnni yaxshi o`ylab, nimaga ishora qilayotganini anglab olish, topishmoqning asosiy xususiyati va belgilari qaysi predmetga qaratilganligini aniqlab olish kerak bo`ladi. Topishmoqning javobi to`g`ri topilsa, o`sha paytdayoq boshqa jumboq o`rtaga tashlanadi. Mobodo, javobini topishda qiynaladigan bo`lsa, u holda aytuvchiga “jonlimi”, “jonsiz” deb so`raladi. Unda ham javob topishga qiynalsa, “qayerda bo`ladi”, “qattiqmi”, “yumshoq” deb so`raydi. Shundan ham topa olmasa, u holda topuvchi “shahar beradi”¹.

Topishmoqlar o`zining mazmuni, kompozitsion qurilishi, tuzilishi jihatidan xilma-xil bo`ladi. Topishmoqda aniq bir narsa – hayvonlar, qushlar, o`simliklar, ish qurollari, tabiat va tabiat hodisalari haqida so`z boradi. O`ylab topishi mumkin bo`lgan narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsaga taqqoslanadi.

Ko`p asrlik xalq donishmandligining durdonalari-topishmoq inson idroki kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o`stiruvchi aqlning quvnoq o`yini, ma`naviy dam olish vositasigina bo`lib qolmay ajdoddarimizning ruhiy olami, tarixiy o`tmishini bilishga kalit vazifasini ham o`taydi. Ular tarixiy madaniyatning bebaho hujjatlaridir. Ushbu munosabat bilan A. N. Tolstoy shunday deb yozgan edi: “Og`zaki adabiyotni xalq kun o`tkazishliigining mevasigina deb o`ylash xato. U xalqning aqli va vijdonidir. U xalqning sobit ma`naviy kiyofasi va tarixiy xotirotidir”².

Haqiqatan qadimda xalq topishmoqlari hozirgidan o`zgacha ahamiyatga ega bo`lgan. Topishmoqlarning yaratilishi, uning obrazlari ko`pgina hollarda mifologiya, qadimiy, hayot tarzi bilan bog`liq qadimiy, ko`p asrlik tarixga ega

¹ Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. – Toshkent:2010. –B. 284.

² Razzoqov Z.X., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. Ozbek xalq og`zaki poetik ijodi. – T.: 1980. – B.98

boʻlgan xalq topishmoqlarining ildizlari insoniyat jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Qadimiy topishmoqlarning asosida insonning dunyoni bilishga, tabiat sirlarini tushuntirishga boʻlgan intilishlari yotadi.

Asrlar oʻtaverkan, keksa avlodlar hayotiy muhim hisoblangan sirli, shartli nutqlarni, bilimni yosh avlodga meros qoldiravergan. Ammo asta-sekin topishmoqlar oʻzining dastlabki xususiyatlarini, sodda koʻrinishlarini oʻzgartib, oʻzgacha xarakter kasb etgan. Keyinchalik topishmoqlar vazifasi oʻzgarib, u koʻproq soʻz oʻyinining badiiy shakliga aylanadi. Ularning koʻngilxushlik xususiyatlari quyidagi oʻzbek topishmogʻida shunday ifodalangan:

Oʻyin, oʻyin, oʻyinim

Koʻngil ochar toʻyinim. (Topishmoq)¹

Oʻzbek xalqi ham boshqa xalqlar kabi Navroʻz oqshomlarida, kuz va qish kechalari gʻoʻza chuvish, charx yigirish, koʻrpacha toʻqish kabi qoʻl mehnati bilan bajariladigan turli-tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan. Topishmoq aytish qaysi bir xalqda boʻlmasin, u aql-ziyraklik musobaqasi, koʻngil ochish, oʻyin kulgi vositasi.

Topishmoqlarda savol tarzida aytiladigan fikrlar maʼlum bir badiiy shaklga tushgan boʻladi. Ular xuddi maqollar kabi ixcham, quyma, taʼsirchan shaklda yaratiladi. Badiiy tafakkur mevasi boʻlgan topishmoqlarda fikr timsoliy yoʻl bilan ifodalanadi. Uning savol javobini boshqarib turadi.

Demak, topishmoqlar ogʻzaki ijodning ommaviy va maxsus jarayonlaridan biri. Ularning uslubi metofora (istiora) koʻchim, kinoya, qochiriq yoʻli bilan soʻzlarni koʻchma maʼnoda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qismidan iborat. Topishmoqlarning shu xususiyatlari haqidagi Qadimgi Yunon faylasufi Aristotelning. “Juda yaxshi metofora tuzish yoʻli”, deyishi bejiz emas.² Topishmoqlar, shuningdek, bolalar idrokini, zihnini oʻstirishda oʻziga xos tarbiya maktabi sifatida yashab kelmoqda. Shuning uchun ham boʻlsa kerak, hozirda ham oʻzlarining sevimli oʻyin joylarida, sersoya

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. Oʻzbek topishmoqlari. – Toshkent:1991. – B. 2.

² Abduraximov I. M. Oʻzbek topishmoqlari. – Toshkent:1991. – B. 23.

qayrog`och yoki kekxa yong`oq daraxti tagida bir-biriga topishmoq aytayotgan bolalarni tez-tez uchratish mumkin. Topishmoqchi uni yechayotgandan, agar u topishmoqning javobini topa olmasa arzimasi narsani emas, balki, uning shahari yoki butun mamlakatini talab qilishi huquqiga ega Bunday hollarda topishmoqni yecha olmagan: “Shahar berdim”, ya’ni yengildim, deydi. Garchi, bu oddiy o`yin bo`lsa-da, mag`lub o`z shahrini osonlikcha bermaydi, g`olib esa, albatta, uning tug`ilgan shahrini talab qiladi. Mana shu shart topuvchini jiddiy o`ylashga majbur qiladi.

Tadqiqotchi M.A.Ribnikov ta’rificha: “Topishmoqlar turkumi madaniyatning ayrim bosqichlarida-dunyoni ko`rish, anglash yo`lidir”¹.

Ajoyib istioralar, yorqin qiyoslashlar, obrazli ifodalar bilan jilolangan o`zbek topishmoqlari qadimiy quyoshli o`zbek yerining jozibasi va o`ziga xosligini tasvirlabgina qolmay, folklor asarlari silsilasida ulkan estetik qimmatini bilan xalq ma’naviy dunyosi taraqqiyotining xazinasini sifatida hozirda ham jamiyatimiz yaxlit madaniy hayotining muhim tarmog`i bo`lib qolmoqda.

O`zbekistonda qadimiy va istedadli xalqning madaniyati yanada gullab yashnadi. Aholining barcha tabaqalari folklor asarlarini to`plashga jalb qilindi.

B. Karimov, M. Afzalov, Z. Husainova kabi olimlar o`zbek topishmoqlarini o`rganishga salmoqli hissa qo`shdilar. O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Adabiyot instituti arxivi fondida o`zbek topishmoqlari bo`yicha ulkan material to`plandi.

O`zbek xalq og`zaki poetik ijodida milliy poetika qonunlari va topishmoqlari talaygina. O`zga xalqlarda bo`lgani kabi o`zbek xalqi ijodida ham badiiy nutqning qiyoslash, istiora, jonlashtirish, sifatlash kabi asosiy ko`rinishlari bir maqsadga poetik idrok qilishga, voqealikni poetik tasvirlashga bo`ysundirgan. Shuning uchun ham xalq topishmoqlari xalq badiiy asarlarining jajji namunalari sanaladi. Ularda “biror narsa asl voqealikning yashirinilgan narsa bilan o`xshash tomonlariga asoslangan - bu narsa o`rnini topishmoq almashtira

¹ Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari. . – Toshkent: 1991. – B. 36.

oladigan ko`chma oladigan ko`chma ifodalar” beradi. Shunday qilib, topishmoq aniq narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishga, sir tutishga asoslangan kichik poetik asardir.

O`zbek xalqi yaratgan topishmoqlari uning ijtimoiy hayoti va turmushining barcha tomonlarini qamrab oladi. Ularning katta qismi dehqon mehnati: dehqonchilik, polizchilik, uy yumushlari bilan bog`liq; topishmoqlar o`z qiziqish doirasiga o`simlik va hayvonot dunyosini, uy xo`jaligiga oid ko`plab narsalarni, xalq odatlari va xislatlarini ham qamrab oladi.

Uy- xo`jalik asboblari mavzusidagi bir nechta topishmiqlarni ko`rib chiqamiz.

1. Alomat-a, alomat,
Ichi qizil qiyomat.
Qo`l urdim,
Quruq chiqdi. (Tandir, non)
2. Qulog`i qornida, boshi yo`q. (Qozon)
3. Qulog`i ichida uchta begi qora (O`choqpoya)
4. Laylak uyada, dumi ziyoda (Cho`mich)
5. Hakka dada, quyrug`i ziyoda (Qoshiq)
6. Ichi qora ko`mirday,
Tishi sariq isharaday,
O`ltirishi mulladay,
Qichqirishi tayloqday. (Samovar)
7. O`zi turar jimgina,
Qulog`i bor birgina. (Choynak)
8. Qorni qortoz,
Burni burtoz,
Otga minmas
Piyoda yurmas. (Obdasta)
9. Borayotganda ot minar,
Kelayotganida tuya. (Ko`za)

10.Qorni qopday bo`yni ipday. (Xumcha)

11.Uzun terak, ichi kovak. (Quva)

12.O`ttiz umurtqasi yo`q,

Qirq qobirg`asi yo`q.

Shiliq-shiliq etadi,

O`zi sira to`ymaydi. (Mesh)

13.Otasi og`zin ochar,

Bolasi urib qochar, (Keli)¹

An`anaviy o`zbek topishmoqlarida voqealar, asosan, uy yoki o`tovlarda kechadi. Ularning saranjomligi, sarishtaligi to`g`risida so`z boradi. Yashash joyidagi voqealar esa o`zbeklarga bolalikdan tanish bo`lgan yerlar tog`lar, cho`llar, vodiylarda bo`lib o`tadi.

I. Topishmoqlar tuzilishi jihatidan ba`zan nasriy, ko`pchilik hollarda she`riy shaklda bo`lib, ularda ma`lum musiqiylik, zarb, turoq, vazn, qofiya kabi she`riyatning formal talablariga amal qilingan.

Qofiya, vazn topishmoq yengil silliq, ixcham, oxangdor esda qoladigan bo`lib tuzilishini ta`minlashga xizmat etadi. Masalan:

14. To`rt oyoqli,

Temir tuyoqli. (Ot)

15.Bir parcha patir, olamga tatir (Oy)

16.Oppoq dasturxon yer yuzini qoplagan (Qor)

17.Past osmondan qor yog`ar (Elak).²

II. Topishmoqlar bir savol-javobli (bir predmetli) bo`lishi bilan birga, ko`p savol-javobli (ko`p predmetli) ham bo`ladi. Bunday topishmoqlar ko`pchilik hollarda yaxlit she`riy parcha tarzida tuziladi.

18.Tog`da talaymonni ko`rdim,

Suvda sulaymonni ko`rdim,

¹ O`zbek xalq topishmoqlari. – Toshkent:Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2014. – B. 145.

² O`zbek xalq topishmoqlari. – Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi .2014. – B. 145.

Tuzsiz pishgan oshni ko`rdim,
Yumalab yotgan toshni ko`rdim. (Bo`ri, baliq, sumalak, toshbaqa)

19. Tagi tog`ora,

Usti nog`ora,

Yuz ming chechak,

Bir guli lola (Yer, osmon, yulduzlar, oy)

20. Yer palak,

Bir palakda,

O`n ikki handalak,

Bu handalakning o`n birini yeb,

Bittasini yeya olmadi. (Yil, o`n ikki oy, bir oy ro`za)¹

III. Ba`zan topishmoqlarning bir nechasi nazm ipiga tizilgan bo`ladi va ularning javoblari ham shu tarzda bo`lishi talab etiladi:

21. Qamish uchi qaltiro`q, uni toping, dilbarim,

Ignu uchi yiltiroq, uni toping, dilbarim,

Sassiq ko`lda it hurar, uni toping, dilbarim,

Taqir-tuqur toqravon, uni toping, dilbarim,

Ichidagi mehribon, uni toping, dilbarim.²

Buning javobi she`riy formada quyidagicha bo`lishi kerak:

Qamish uchi qaltiroq-shamol degani emasmi,

Ignu uchi yiltiroq - ut degani emasmi,

Sassiq uyda it hurar - suv baqasi emasmi,

Taqir-tuqur toqravon-beshik degan emasmi,

Ichidagi mehribon-bola degan emasmi

IV. Topishmoq, jumboqlar, ularning paydo bo`lishi, yaratilishi, javobga olib boruvchi unsurlarni tahlil qilish natijasi shuni ko`rsatadiki: "Alohida-alohida predmet yoki hodisalar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni kuzatish natijasi

¹ Husainova Z. Topishmoqlar. –Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 1988. -B.25.

² www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari

sifatida dastavval topishmoq-ssenariy yuzaga kelgan. Bunday o`zaro aloqa topishmoqning javob va savol qismlarida ochib beriladi”¹.

Topishmoq kompozision qurilishi, tuzilishi va o`zining mazmuni bilan xilma-xillik kasb etadi. Unda o`ylab topilishi kerak bo`lgan voqelik, predmet, hodisa yoki konsept o`zidan uzoq ikkinchi bir narsaga taqqoslanadi. Topishmoq-ssenariyda savol qismi bo`lib kelgan yashirin birinchi narsani topish uchun taqqoslanayotgan ikkinchi narsa qaysi jihatidan (bajaradigan vazifasi yoki shakliy o`xshashligi) qiyoslanayotganligiga e`tibor qaratish joiz.

22. Og`ilda besh barmoq,

Ishi xas-cho`p to`plamoq. (Panshaxa)

Yuqorida tahlil qilingan jumboqlar odatda, ham shaklan o`xshashligi, ham vazifaviy qiymatini e`tiborga olib tuzilgan topishmoq-ssenariylar hisoblanadi.

23. Bir parcha patir, olamga tatir. (Oy)

24. Ko`k ko`ylakka g`o`za yoydim. (Osmon, yulduzlar)²

kabi topishmoq-ssenariylar shular jumlasidan. Ushbu birinchi obrazli jumlada, “patir” *yarim oy* shakliga qiyos qilinsa, uning butun olamni yoritishi esa vazifaviy jihatdan e`tiborga olinadi. Shuningdek, xalqlar qadim zamonlarda osmon sirlarini kuzatish yo`li bilan tasavvur etganlar. Yerda yashovchi kishiga osmon kunduz kuni ko`k rang bilan qoplangan olam shaklida ko`ringan. Shuning uchun ko`pgina xalqlarda fazoni *ko`k* deb atashgan. Shunga ko`ra, ikkinchi topishmoq-ssenariydagi “ko`k” *osmon* konseptiga muvofiq keladi. Bu “ko`k”ka yozilgan *g`o`za* va uning yaproqlari bag`rida ochilib turgan chanoqlar esa tashqi ko`rinish, miqdor jihatdan keng osmon bag`rida charaqlab turgan yulduzlarga o`xshatilgan.

25. Buvimning tomi boshida

Kulcha non turar osilib,

It qancha vovullasa,

¹ Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. –Toshkent: 1966. – B. 44.

² Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. –Toshkent: 1966. – B. 44.

Ololmas uni ilib¹.

Ushbu topishmoq-ssenariydagi birinchi misrada javob ancha yiroqroq bo`lsa, ikkinchi misra- “kulcha non osilib turishi” shakliy o`xshashlik bilan oy nazarda tutilayotganligiga ishora beradi. Keyingi satrlar esa hayotiy tajriba asosida xotiradagi mavjud bilimlarga (itlarning yoki bo`rilarning tunlari oyga qarab hurishi, uvillashi) tayanilgan holda javobni ochib beradi.

Topishmoq-ssenariylarda ba`zan, javobga “ochqich” so`z berilsa, ba`zida esa javobni topish ancha mushkul kechadi.

26.To`ntarilgan ko`k qozonda oltin tanga qaynaydi.

27.To`ntarilgan qozon, boq, qulog`i yo`q beqopqoq,

Qaynab yotar, ichida behisob tilla bodroq.²

Birinchi topishmoq-ssenariyda “ko`k” so`zi javob uchun ochqich kalit-“osmon” konseptining yadrosi sanaladi. Ko`pgina xalqlarda ko`k osmonni anglatadi. Ikkinchi topishmoq-ssenariyda esa topishmoq topuvchi diqqatini ko`plab predmetlar tomon buradi, ya`ni “qozon- qopqoqsiz, qulog`i yo`q, to`ntarilgan, ichida esa tilla rangdagi behisob sariq jismlar”. Bu tahlil, harchand harakat qilinmasin, javobga olib bormaydi. Topishmoq topuvchi keyingi tahlil “qaynab yotgan behisob tilla bodroq” ga e`tibor qaratadi. “Tilla” predmeti bilan bog`liq xotiradagi avvalgi bilimlar ishga solinadi: “tilla-qimmatbaho, sariq, oq-sariq rangdagi yaltiroq metall. To`ntarilgan qozon dumaloq shaklda, uning ichida behisob miqdorda yaltiroq bodroq bor”. Topishmoqning javobiga ozroq bo`lsa-da, yaqinlashtiruvchi predmet “yaltiroq bodroqdir”. Chunki, bodroq shakli yulduzlarga nisbat qilingani sezilib turibdi.

Topishmoqlar aqlni charxlashga, idrokni o`stirishga yordam beradi. Buyuk olim Aristotel, topishmoqlarning metaforalardan tashkil topganligini alohida ta`kidlaydi: “Amalda topishmoqning mohiyati haqiqatan mavjud bo`lgan narsa to`g`risida so`zlash, shu bilan birga, butunlay mumkin bo`lmagan narsalarni birlashtirishdir. Bunga ko`p qo`llanadigan so`zlar vositasida erishib

¹ Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. –Toshkent: 1966. – B. 44.

² Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. –Toshkent: 1966. – B. 44.

bo`lmasa, metaforalar orqali erishish mumkin”.<sup>1</sup> Chindan ham metafora narsa va hodisalar, predmetlarning u yoki bu belgisi o`xshashligiga asoslangan poetik ko`chim bo`lib, an'anaviy topishmoqlarning mohiyatini belgilaydi.

Tadqiqotchilardan I.Losev o`z tadqiqotlarida tilda obrazlilik haqida to`xtalar ekan, simvolik obraz va metafora orasida parallel o`tkazib: “Har qanday metafora o`z-o`zicha ma’no anglatadi. Agar, u biror narsaga ishora qilsa, u ham o`ziga-o`zi ishora qilishi hisoblanadi. U o`zidan tashqari bo`lgan, o`zi undan tashqarida bo`lmagan hech bir narsaga ishora qilmaydi”², degan fikrni ilgari suradi. Topishmoq-ssenariylar misolida fikrimizni davom ettiramiz:

28. Qoravoy akam yiqildi,

Bola-chaqasi yig`ildi.

29. Qoravoy otdan tushdi,

Bolalari yugurishdi. (Qozon, idish-tovoqlar)³

Har ikkala topishmoq-ssenariy javobi ham ro`zg`or buyumlari hisoblanmish qozon va idish-tovoqlar haqida. O`zbek millatiga xos kishi uchun yoki bu topishmoq-ssenariyni ilgaridan eshitib yurgan odamga javob qozon-tovoq ekanligi ayon. Biz topishmoq-ssenariy qurilishida “qozon-tovoq (idishlar)” konseptiga xos komponentlar mavjudligi uchun emas, balki shu javobni ilgaridan eshitib yurganimiz uchun oson topa olamiz. Aslida topishmoqning bilish ssenariysida konsept (javob) yadrolari qay darajada aks ettirilgan? E’tibor bersak, mazkur topishmoq-ssenariylarda “qozon” konsepti uchun obrazli xususiyat tarzida “qora” so`zi tanlangan. Ro`zg`ordagi hamma qozonlar ham qora bo`lavermaydi, “qoralik” belgisi “qozon” konseptining chekka qismlaridagina o`rin olishi mumkin. Konseptning ovqat tayyorlashda asosiy buyum sifatida foydalanish ma’nolari emas, aksincha, ba’zan, uchrab turadigan (qaysidir qozon yuvib tozalanmasa, qora qozon bo`lishi mumkin) chet uzvlar

¹ Джусупов Н. М. Лингвокультурные аспекты исследования символа в художественном тексте. Автореф. дисс. канд. фил. наук. Москва.-Ст.-34.

² Ashuraliyev Elyor, Xalq topishmoqlarining kognitiv strukturasi. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.-B .45.

³ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari.

topishmoq ssenariysini shakllantirishda asosiy planga ko'tarilgan. Bilish jarayonida xalqning, millatning tarixiy o'tmishi, turmush tarzi, milliy-madaniy qarashlarini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, bugungidek zamonaviy gazlashtirilgan qulayliklar-sharoitlar mavjud emas edi, o'choqlarga qozon osilib, turli o'tin-olov yordamida ovqat pishirilgan. O'tin-olov yoqilishi natijasida har qanday holatda qozon qora kukun bilan qoplanib, qora qozonga aylanishi tabiiy hol. Bunday asos topishmoq-ssenariy qurilishida tashqi o'xshashlik (qora ranglilik) xususiyati aks ettirilgan deyishga sabab bo'la oladi. Lekin xalq yaratgan topishmog'ida tashqi o'xshashlikdan ham ko'ra ko'proq ma'noviy belgi birinchi o'ringa chiqarilgan. Ya'ni, qozon ro'zg'or buyumi. Ba'zan bu konseptning tilda ushbu komponenti (ro'zg'or buyumi ekanligi) bo'lakdan butun (ro'zg'or-turmush-kun-umr) tarzida (sinekdoxa) namoyon bo'lishi ham kuzatiladi. Ya'ni, "qora qozonimiz qaynab turibdi; qozon-tovoqqa o'ralashib qolmoq" kabi misollarda "ro'zg'orimiz, kunimiz o'tib turibdi", "ro'zg'or-turmush ishlari bilan band bo'lib qolmoq" ma'nolari anglashib turganligi fikrimiz isbotidir. Bu o'rinda qozonning qora bo'lishi kambag'allik, o'rtamiyona, faqirona hayot tarzi (kun o'tkazib turilganligi)ga ishoradir. Bundan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida "qora" so'zi tarkibiy qismlarida "tashvish-dilxiralik-dard-zulmat-motam" kabi salbiy bo'yoqdorlik - yashirin ma'nolari ham mavjuddir. Bu ma'nolar tilning obrazli qurilishga egaligini ko'rsatishi kontekstda oydinlashadi. Topishmoq bilish ssenariysida "qozon" konseptining tashqi o'xshashligi jihatidan qora rangdaligiga e'tibor berilgan bo'lsa-da, aslida bu konseptning chekka, yondosh komponentlari hisoblanib, yuqorida keltirib o'tilgan yashirin ma'nolarni aks ettirishga xizmat qilgan.

Qadimiy topishmoqlarning xususiyati shundaki, unda eshitilgan narsa yoki predmet boshqa bir narsa yoki predmetga taqqoslash yo'li bilan aytiladi. Masalan: "Dunyoda to'rta narsa yo'q" kabi. Bu eyrda to'rtta narsani topish kerak bo'ladi.

30. Osmonning ustuni yo`q,
Hovuzning qopqog`i yo`q,
Ko`rpaning yengi yo`q,
Oshpichoqning qini yo`q.¹

V. Topishmoqlar maqol xususiyatiga ham ega bo`ladi. Masalan:

31. “Hammaga to`n tikaman, o`zim yalang`och” (Igna).

VI. Topishmoqda metafora, o`xshatish, mubolag`a, sifatlash, takror kabi ifoda vositalari keng foydalaniladi:

32. O`zi bir qarich, soqoli qirq qarich (Igna)

33. Yer tagida oltin qoziq (Sabzi)

34. Zilzil gilam, zil gilam, zildan ham og`ir gilam (Yer).

VII. Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so`z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Topishmoqdan doston va ertaklarda keng foydalaniladi. Topishmoqlar doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqarliligini, o`qishliligini ta`minlaydi: “Oshiq Oydin”, “Oshiq Alvand”, “Xirmon Dali”, “Ozi bilan Zebo”, “Alpomish” va boshqa dostonlarda, “Podsho bilan donishmand chol” ertagida topishmoq namunalari bor. Doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aqli va farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko`proq ertaklarda uchraydi. Topishmoq qatnashadigan ertaklar ikki xilda bo`ladi: Birinchisi, topishmoqli ertak bo`lib, bunda topishmoq ertak ichida keladi. Ikkinchisi, ertak-topishmoq hisoblanib, undagi asar voqealari topishmoq asosida qurilgan bo`ladi. Topishmoq bilan bog`liq masalalar folklorshunoslikda tadqiq etiladi.

Barcha xalqlar og`zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o`ziga xos turi hisoblangan topishmoqlar mumtoz adabiyotda “chiston” deyiladi. Topishmoq hammabop ommaviy janrdir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari - turmush madaniyati, urf-odatlar va boshqa jihatlari, inson va uni o`rab olgan olam

¹ Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 1981.-B.26.

o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqda yashirin ma'no ko'pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog'i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o'simlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi bo'lgan kishi unda keltirilgan ko'chma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uni hayotdagi belgilarga to'g'ri kelishiga qarab javobni topadi.

Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi bo'lsa, ayni paytda ko'ngilochar o'yin ham hisoblanadi.

VIII.Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o'stiradi, ayniqsa, bolalarni topag'on bo'lishga, hozirjavoblikka o'rgatadi. Topishmoq shunday ajoyib janrki, unda g'ayritabiiy tuyulgan narsa aslida kundalik hayotda ko'rib-bilib turgan narsa bo'lib chiqadi:

35.Teg desa tegmaydi, tegma desa tegadi (Lab)

36.Chin qushim, chinni qushim,

Chin tepaga qo'ndi qushim,

Tumshug'ini yerga berib,

Xalqqa salom berdi qushim. (Choynak)¹

Topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ular olam va odam bilan bog'liq barcha narsa va hodisalarni qamrab oladi. Masalan, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsumlar, hayvonot dunyosi, odam, uning a'zolari va xislatlari, mehnat va o'quv qurollari, cholg'u asboblari, turar joy, uy-xo'jalik asboblari, qurol-yarog'lar haqida bo'lishi mumkin.

IX. Topishmoqlar topilishi kerak bo'lgan narasalarining paydo bo'lgan davriga ko'ra ikki xil bo'ladi.

- Qadimgi-an'anaviy-topishmoqlar;
- Yangi topishmoqlar.

¹ O'zbek xalq topishmoqlari. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.2014.-B.154.

Agar an'anaviy topishmoqlar ko'pincha mo'ri, tandir, egar, o'choq, qozon, kabi narsalar haqida bo'lsa, yangi topishmoqlarning mavzulari radio, televizor, kitob, atlas kartasi, samolyot, parovoz kabilar bilan bog'lanadi.

Ba'zan an'anaviy ertaklar matnlarida ham topishmoqli lavhalar uchraydi. Yerda eng og'ir narsa nima? Uchta jumboqni yeching.....kabi parchalar ertak qahramonlari yechishi lozim bo'lgan topishmoqlar sifatida beriladi. An'anaviy topishmoqlar zahirida xalqimizning tarixi, qadriyatlari aks etgan bo'lsa, zamonaviy topishmoqlarda kundalik turmushimizdagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlari o'z ifodasini topgan.

37. Aqlli temir olam kezar. (Yerning sun'iy yo'ldoshi)

38. Cho'zilib yotar narvon,

Undan o'tar uy-karvon. (Temir yo'l, poyezd)¹

¹ Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.-B.213.

II BOB. INGLIZ VA O`ZBEK TOPISHMOQLARIDA UY-RO`ZG`OR BUYUMLARINING IFODALANISHI

2.1. Ingliz xalq topishmoqlarida uy-ro`zg`or buyumlarining aks ettirilishi

Boshqa xalq topishmoqlari kabi ingliz topishmoqlari ham yashiringan javobning mavzusiga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi. Bu turlar ichida uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlari alohida ahamiyatga ega. Garchi ular asrlar o`tib fan va texnikaning rivojlanishi natijasida o`zgarib, ko`lami anchagina ko`paygan bo`lsa-da, qadimiy kitob hisoblanmish “Exeter Book”da ham bu turdagi topishmoqlar talaygina. Kitobdagi topishmoqlarning ko`pchiligi kemachilik, harbiy qurol aslahalar, hayvonlar va o`simliklar hamda uy-ro`zg`or buyumlari haqidadir. “Exeter Book”dagi 90 topishmoqdan bir qanchasi haligacha jumboqligicha qolgan bo`lsa ham, javobi topilgan topishmoqlardan 12tasi uy-ro`zg`or buyumlari, mehnat qurollari haqida ekanligiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Bizga ma`lumki, topishmoqlar Anglo-Saksonlar tilida yozilgan qadimiy ingliz tilida bo`lib, ularni 1963-yilda Paul Franklin Baum hozirgi ingliz tiliga tarjima qilgan edi:

I know a thing with a single foot doing deeds of might.

It travels not nor rides much, nor can it fly
through the clear air; nor does ship carry it,
a boat with nailed planks. It is nevertheless
useful to its master at many times.

It has a heavy tail and a small head
and a long tongue. It has no tooth;
part is of iron. It goes through a hollow.

It swallows no water, it eats nothing,
it desires no fodder. Often notwithstanding
it bears water aloft. It boasts not of life
or of gifts from its chief. It obeys nonetheless

its master's word. In its name there are
three real runes. Rād is the first.¹

Topishmoq kitobning 34-topishmog'idir. Topishmoqning javobi suv charxpalagi hisoblanadi. Undan har bir xonadonda quduqdan suv olish uchun foydalanilgan. Topishmoqda berilgan o'xshatishlar aynan topishmoq javobiga xos bo'lgan xususiyatlarni izohlagan: "yurolmayman, ucholmayman, kemaga ham ega emasman" degan so'zlar harakatiga ishora qilayotgan bo'lsa, "boshi, tili, dumi bor, ammo, tishim yo'q, u bir bo'lak temir so'zlari shakliga ishora qilyapti. Garchi topishmoq bir komponentli topishmoq bo'lsa-da, unda yana bir qancha narsalar yashiringan. Topishmoqdagi buyumning "dumi (tail)" so'zi arqonini, "boshi (head)" so'zi chelagini, "u tilimas bir parcha temir" gapi ilgagini bildiriyapti. Bu ishoralardan tashqari gap oxirida javobga yaqinlashtiruvchi ishora ham bor: *Rād is the first*, *rād* so'zi runi, runic degan ma'nolarni anglatib, Anglo-Saksonlarning alifbosi hisoblanadi. *Rād* so'zidagi birinchi harf bilan javobning birinchi harfi bir xil ekanligiga ishora qilinmoqda. Javobi "Riding-well yoki water well" bo'lgan topishmoq mana shunday puxta shakl va ma'noga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu kitobdan yana bir topishmoq:

1. Bound with rings I must readily obey
from time to time my servant and master
and break my rest, make noisily known
that he gave me a band to put on my neck.
Often a man or a woman has come to greet me,
when weary with sleep, wintry-cold, I answer him:
(their hearts were angry): "A warm limb
sometimes bursts the bound ring."
Nonetheless it is pleasant to him, my servant,

¹ en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle

a half-witted man, and to me the same,
if one knows aught and can then with words
riddle my riddle successfully.

Topishmoqning javobi hammaga ma'lum bo'lgan, hozirgacha ro'zg'orda ishlatiladigan “eshik qo'ng'irog'i (bell)” hisoblanadi. Hozirgacha uning shakli saqlangan. Ammo tuzilish va ko'rinishi o'zgargan. Yuqorida berilgan topishmoqqa qaraganda topilishi anchagina oson. Topishmoqda berilgan birinchi gapdanoq (*Bound with rings*) uning ko'rinishi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Gapira olishi, shovqin qilishi uning harakat holati haqida so'zlaydi. Topishmoq buyum tilidan chiroyli o'xshatishlar qilib yozilganki, hatto uning xafa bo'lish holati ham ko'z oldimizda yaqqol gavdalanadi.

Guvohi bo'lganimizdek, yuqorida berilgan an'anaviy topishmoqlar hajmi jihatdan katta, ma'nosiga ko'ra murakkab hisoblanadi. Ingliz zamonaviy uy-ro'zg'or buyumlari topishmoqlarning katta qismini tuzilishi jihatdan ancha sodda, javobini topish uncha qiyinchilik tug'dirmaydigan topishmoqlar tashkil etadi.

2. Head of iron, tail of wood. (A hammer)

3. I am a lively worker,

I despises lazy boys.

When I see any,

I strike them on the head. (A hammer)

An'anaviy buyum “bolg'a” javobli topishmoq yaqin o'tmishda ham foydalanilgan buyumlar uchun yozilgan zamonaviy shakldagi topishmoq hisoblanadi. Har ikkala topishmoqda ham qofiyalarga rioya qilinmagan bo'lib, bir komponentli hamda bir misrali topishmoqlardir. Topishmoqlarning har birida faqat birgina narsa tasvirlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi topishmoqda bolg'aning shakli, ko'rinishi haqida ma'lumot berilayotgan bo'lsa, ikkinchisida buyumning harakat va holati tasvirlanyapti.

Shuningdek, ko`pgina zamonaviy topishmoqlarda savol-topishmoqlar turini uchratamiz. Ular grammatik jihatdan bir xil ya'ni, so`roq gaplar shaklida bo`lib so`roq olmoshlari “what?”, “why?”, “who” kabi so`zlar orqali yuzaga keladi.

4. What has a hundred teeth, but cannot eat? (A saw.)
5. Who is very long and thin with a big and heavy head? (A hammer.)
6. What is it that doesn't ask questions, but must be answered?
(A telephone.)
7. What is higher without a head than with a head? (A pillow)¹

Zamonaviy topishmoqlarning uy-ro`zg`or buyumlariga oid turlarida ko`p misrali, qofiyali so`zlar ishtirok etgan murakkab topishmoqlar ham talaygina.

8. If you want to get rid of dust,
Then I'm surely an absolute must.

From every corner and every nook

I'll suck it out, by hook or by crook. (A vacuum cleaner)²

To`rt qatordan iborat bir komponentli topishmoqda javobga ishora qilinishi uchun ko`proq uning vazifasi jumboqlanmoqda. Qofiyadosh so`zlari: dust-must, hook-crook kabilar bo`lib, ingliz qofiyadosh topishmoqlarining to`liq qofiyali topishmoqlari turiga misol bo`ladi.

To`liq qofiyali uy-ro`zg`or buyumlaridan yana bir nechtasiga misol keltiramiz.

9. Over fields, and woods, and rivers
This voice carries (sometimes quivers).
It is carried by wires
Day and night, it never tires. (A telephone)

10. Your artwork shines within my glow.
I hold other good things you know!
Your mother says to close me up-

¹ <http://goodriddlesnow.com/riddles/view/428>

² <http://riddles-for-kids.org/>

Look up high, if you are stuck! (Fridge)

11. Black within and red without;

Four corners around about. (Chimney)

Ingliz uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlarida bir komponentdan iboratlik ya'ni junboqlangan javob faqat bitta bo`lishi ko`p uchraydi. Ko`p komponentli yoki birdan ortiq javobli topishmoqlar juda kam hisoblanadi.

12. I give you a group of three. One is sitting down, and will never get up.

The second eats as much as is given to him, yet is always hungry.

The third goes away and never returns. (Stove, fire, smoke)

13. An iron horse with a flaxen tail.

The faster the horse runs,

the shorter his tail becomes.

What is it? (A needle and thread)¹

Ingliz uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlarining so`z san'ati darajasiga ko'tarilishi uchun stilistik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Stilistik vositalarning topishmoqlarda qo'llanuvchi ko`p turlari mavjud, bularga metafora ("metaphor"), o'xshatish ("simile"), shaxslantirish ("personification"), "paradox" va "pun" kabilar kiradi. Barcha ingliz topishmoqlarida qo'llanuvchi metafora stilistik vositasi uy-ro`zg`or buyumlari ifodalangan topishmoqlarda ham muhim rol o'ynaydi. Quyidagi topishmoqlar metafora usuli yordamida shakllangandir:

14. With silver fangs it lies in wait,

With piercing force it doles out fate.

Bloodless victims proclaims it might,

Conjoining them ever by only one bite. (A stapler)

15. This is the house with one window in it,

Showing films nearly every minute. (A TV-set)

16. A hundred little brother,

¹ <http://www.mamalisa.com>

They are all alike.

Guess them by and by. (The centimeters in a meter)

Birinchi topishmoqda steplarning har bir ashyosi qiyoslanyapti: temir tutqichi- kumush tilga, undagi qog`ozlar esa qonsiz qurbonga o`xshatilyapti. Asosiy vazifasi qog`ozni jamlab qistirishi itning tishlashiga qiyoslanyapti. Ikkinchi topishmoqdagi metaforik o`xshatish juda tabiiy va soda yo`l bilan tasvirlanyapti. Birinchi misrada ko`rinishi jihatdan televizor derazali uyga o`xshatilayotgan bo`lsa, keyingi misrasida uning vazifasi haqida so`zlanyapti. Ro`zg`orda o`lchash uchun ishlatiladigan santimetr lentasidagi har bir santimetr bir-biroviga juda o`xshash bo`lgan kichik aka-ukalarga qiyoslanmoqda. Shunday qilib, har bir topishmoqda metaforadan mohirona foydalanilganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin.

17. I am hard and sharp, strong in entering,
bold in coming out, good and true to my lord.
I go in underneath and myself open up
the proper way. The warrior is in haste
who pushes me from behind a hero with his dress.
Sometimes he draws me out, hot from the hole.
Sometimes I go back in the narrow place-
I know not where. A southern man
drives me hard. Say what my name is. (Gimlet)¹

“Exeter-Book” kitobining 79-topishmog`ida metaforik o`xshatishlar bir nechta bo`lib, ular buragich javobli topishmoqning topilishi uchun muhim rol o`ynayapti. Shulardan biri “southern man” iborasi bo`lib o`sha davrda yashagan qo`li gul ustalar janubda bo`lganligini ko`rsatadi. Topishmoqning boshlang`ich qismlarida buyumninng ko`rinishi birinchi shaxs tomonidan aytilgan. Keyingi baytlarda uning vazifasi buyumning o`zi tomonidan so`zlanyapti.

¹ en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle

“Simile” stilistik vositasi qoʻllanilgan uy-roʻzgʻor buyumlari tomishmoqlarida ham asos oʻxshatilish hisoblanib, bunda yuklamalar yoki sifat darajalaridan foydalaniladi.

18. Big as biscuit, deep as cup,

Even a river can't fill up.

What is it? (A kitchen strainer)

19. The more it runs,

The cooler it becomes. (The fridge)¹

Topishmoqlarda qoʻllanilgan “simile” ikkiga boʻlinar ekan, yuqoridagi elak (setka) (“A kitchen strainer”) javobli topishmoqda kattaligi pechenyede, chuqurligi esa piyoladekligi “simile”ning teng qiyoslanish turi orqali qiyoslanyapti. Ikkinchi topishmoqda sifatning qiyosiy darajasi noteng qiyoslanishni vujudga keltirgan.

“Paradox”da uy-roʻzgʻor buyumlari topishmoqlaridagi maʼnolarni bir-biriga zidlash orqali maʼno jumboqlanadi.

20. What is bought by the yard and worn by the foot? (Carpet)

21. What is neither inside the house, outside the house, but no house is complete without it? (Windows)

22. What is full of holes and yet hold water? (A sponge)

23. What has a teeth, but can not eat? (A comb)²

“Paradox” li yuqoridagi barcha topishmoqlarda tasavvurga sigʻmaydigan darajada bir-birini inkor etayotgan soʻz, soʻz birikmalari mavjud. Ikkinchi topishmoqni tahlil qilib koʻrsak: bu buyum shunday joyda: na uy ichida va na uy tashqarisida boʻlishiga qaramay, uningsiz uyni tasavvur eta olmaymiz. Har uchala izohlar ham bir birini inkor etish bilan birga, jamlanib jumboqning topilishi uchun yoʻl ochyapti. Deraza jumboqlangan topishmoqda uning joylashuvi jumboqlanayotgan boʻlsa, keyingi topishmoqlarda buyumlarning shakli zidlanish usuli orqali tasvirlanyapti. Tishli buyum sifatida taroq,

¹ <http://www.mamalisa.com>

² <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags/>

teshikchalardan iborat ro`zg`or buyumi sifatida esa mochalkali yuvgich javoblari yashirilgan.

Odamlarga xos bo`lgan xususiyatlar buyumlarga ko`chirilib jumboqlanishi “Personilification” deb ataladi.

24. Without a tongue, without an ear,

I can speak, and sing, and hear. (A tape recorder)

25. It can speak

With its hard metal tongue,

But it can not breathe

For it has no lung. (A bell)

Ikkala topishmoqda ham gapira olish, kuylash va eshitish qobilyatlariga ega buyumlarni topish vazifa qilib berilgan. Odamga xos qobilyatlarga aynan ega bo`lmasa-da, ovoz yozish apparatining vazifaviy tomoni shular orqali tasvirlangan. Qo`ng`iroq (“bell”) javobli topishmoqda vazifaviy jihati bilan birga uning shakli ham ko`rsatilgan, ya’ni “tongue” tili borligi shaxslantirish usuli uchun yaqqol misol bo`la oladi.

“Pun” so`z o`yini hisoblanadi. O`quvchiga bir narsa deyish orqali, shu so`zdagi tag ma’no yashiriladi, chalg`itiladi. O`quvchi boshqa narsani tushunadi, so`zlovchi boshqa ma’noda gapiradi. Uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlarida qo`llanilgan “pun” topishmoqning yanada qiziqarli va javobi topilgandan so`ng kulgili bo`lishiga xizmat qiladi.

26. I have a ring, but no finger. (A telephone)¹

Ushbu topishmoqda “ring” so`zi so`z o`yinini vujudga keltiryapti. Bu so`zning gapdagi vazifasiga va keyingi so`z birikmasiga qarab o`quvchi shakshubhasiz uni uzuk degan ma’noda tushunadi. Ammo topishmoqda o`quvchini chalg`itishni maqsad qilib, jo`rttaga fe’l so`z turkumidagi to ring - “jiringlamoq, qo`ng`iroq qilmoq” so`zi ot so`z turkumidagi ring – “uzuk” so`zi bilan almashtirilyapti.

¹ <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags/>

27. What is that doesn't ask answered, but must be answered? (A telephone)¹

Mazkur topishmoqda hech qanday soʻzni almashlab qoʻllash mavjud boʻlmasa-da, javob bermoq “to answer” feʻlining asl maʼnosi, yaʼni savolga javob bermoq soʻzi birinchi qismda izohlanayotganligi, oʻquvchining aynan shu maʼnoda tushunishi uni chalgʻitadi. Topishmoqdagi asosiy maʼno “qoʻngʻiroqqa javob bermoq” feʻlidan uzoqlashtiradi. Bu bir misrada uchta uslub qoʻlanilgan boʻlib, javob berish qobilyatiga egalik shaxslantirish uslubini vujudga keltirsa, ikki bir-biriga zid maʼnolarni qoʻllash “paradox” uslubida ekanligini koʻrsatadi.

Uy-roʻzgʻor buyumlari topishmoqlarida ismlar qatnashgan turlari ham kam boʻlsa-da uchraydi:

28. Little Nanny Etticoat

In a white petticoat,
And a long red nose;
The longer she stands
The shorter she grows. (Candle)²

Bu sheʼriy topishmoq bolalar uchun yaratilgan boʻlib, topishmoqda jumboqlanayotgan buyum kichkina qizaloq Nanny Etticoatga taqqoslanib, unga tarif berish orqali sham tasvirlanyapti. Rangi oq, shamning olovli, uchi qizil rangli ekamligi 2-3-misralarda aks ettirilyapti, keyingi misralarda esa uning jarayon davomidagi holati keltirilgan.

Bolalar uchun yaratilgan uy-roʻzgʻor buymlari topishmoqlariga koʻplab misollar keltirishimiz mumkin. Ularning aksariyati sheʼriy usulda yozilgan boʻlib, odatda, stilistik vositalardan yiroq, murakkab boʻlmagan oʻxshatishlar ishtirok etgan soʻzlar qatnashgan boʻlib, koʻproq buyumlarni tasvirlashdan iborat boʻladi.

29. If your hands get really messy

And dirt is all that can be seen

¹ <http://goodriddlesnow.com/riddles/view/428>

² <http://riddles-for-kids.org>

Then use some of this with water

To help make sure your hands get clean. (Soap)

30. In every person's bathroom

These are things that will be seen

For these are used with Colgate

To keep your teeth white and clean. (Toothbrush)

Shunday qilib, xalqning turmush tarzini ifodalovchi uy-ro'zg'or buyumlari topishmoqlari xilma-xil usullarda yaratilgan bo'lib, ular o'ziga xos shakli, mazmun va uslublarga egaligiga yuqoridagi tahlillar orqali guvoh bo'ldik.

2.2. O'zbek uy-ro'zg'or buyumlari topishmoqlarida xalqning ijtimoiy hayoti va turmush tarzi talqini

Uy-ro'zg'or buyumlariga oid topishmoqlarni tahlil qilar ekanmiz, bunda biz o'sha xalqning madaniyati bilan tanish bo'lishimiz darkor. Zero, topishmoqning javobini topish uning madaniyatini bilish bilan chambarchas bo'g'liq hisoblanadi.

O'zbek uy-ro'zg'or topishmoqlarida o'zbeklarning an'anaviy mashg'ulotlari va xo'jalik faoliyatlari o'z aksini topadi. Xalqning esa yashash sharoiti, turmush tarzi, urf-odati mujassam bo'lgan. O'zbek xalqi qish va kuz kechalarida g'o'za chuvish, charx yigirish, ko'rpacha qavish kabi qo'l mehnati bilan bajariladigan turli tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan. Ba'zi uy-ro'zg'or topishmoqlari bilan tanisharkanmiz, xalqning shu jarayonda ishlab bir vaqtning o'zida jarayon va mehnat qurollari haqida topishmoq to'qishganlariga guvoh bo'lamiz.

39. Bozordagi mo'ndi ,

Kelib qo'limga qondi. (Angishvona)

40. O'zi so'lpi,

Rangi qulpi,

Tagi teshik. (Cho`lpi)

41. Ikki bo`ri tog`da o`ynar,

Chang chiqarmay,

Ikkalasi ham bir bosh yeydi,

Qon chiqarmay. (Qaychi)¹

O`zbek topishmoqlari ko`p asrlik janr bo`lganligi sababli, bu asrlar davomida murakkablashib, sayqallanib kelinmoqda. Har bir uy-ro`zg`or buyumlari aks ettirilgan topishmoqlar ma`lum shakl, mazmun, kompozitsion qurilishlari bir-birini takrorlamas jihatlardan iborat bo`ladi.

Har bir topishmoqni bezovchi asosiy manba bu – badiiy tasvir vositalari bo`lib, bunday vositalar bilan qurilgan har bir topishmoq so`z san`atining namoyon bo`lishi hisoblanadi. Topishmoqlarda qo`llaniladigan so`zlar ko`p hollarda ko`chma ma`noda qo`llanishi ham shundandir. Aks holda doimiy o`z ma`nosida qo`llangan so`zlar topishmoqni jozibasiz, o`quvchini esa zerikishiga sabab bo`ladi. O`zbek tilida asrlar osha qo`llanib kelayotgan badiiy tasvir vositalari borki, ular har bir janrda qo`llaniladi. Hozirgi kunda keng kitobxonlarga ma`lum bo`lgan Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz adabiyot malohati” (1999y) asarida 50dan ortiq badiiy san`at izohlanganligiga guvoh bo`lamiz. Quyida bir necha she`riy san`atlar qo`llanilgan uy-ro`zg`or topishmoqlarini tahlil qilishga urinib ko`ramiz.

Adabiyotshunoslik kitoblarida beriladigan metafora (grekcha “ko`chirish”) atamasi qadimgi o`zbek tilida ko`p hollarda “tashbeh” deb atalgan. Hozirda o`xshatish san`ati, deb ham yuritiladi:

42. Yer ostida oy yurar,

Oq soqolli boy yurar. (Omoch)²

Bu topishmoqning javobi omoch hisoblanib, uni bobo-kalonlarimiz ro`zgo`rda yer haydash uchun ishlatishgan. U bilan yerga ishlov berib, hosil olish va shu orqali kun kechirishgani uchun uni osmondagi oy-u, oq soqolli

¹ Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti.1981.-B.115.

² www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. “O`zbek topishmoqlari”- B.42.

boyga o`xshatishgan. Tashbeh usuli (metafora) narsa, belgi, harakat kabilarning boshqa so`z yordamida o`xshatish, qiyoslash demakdir. Tashbehning yuzaga kelishida o`xshamish, o`xshatilmish, asos va vosita singari 4 unsur ishtirok etsa-da, ularning barchasi ham topishmoq janrida ishtirok etmaydi, faqat o`xshatilmish qo`llaniladi. Qolgan unsurlar topishmoq ma`nosidan tushunib turiladi.

43. Qorong`u tunda bir kampir,

Sochini yoyib o`tiribdi.

44. Bir bosh bug`doy uy to`ldirar. (Chiroq)¹

Javoblari chiroq bo`lgan ushbu topishmoqlarning har ikkalasida ham faqatgina o`xshatilmish ishtirok etgan. Birinchisida kampirga chiroq va sochlari uning nurlariga qiyoslangan bo`lsa, ikkinchisida bug`doyga o`xshatilyapti, ammo ikki o`xshatilmish tashbehni yolg`iz quryapti.

45. Og`zi do`ppidek,

Ichi qizil, xumdek.

46. Ichi qaro ko`mirday,

Tishi sariq, isparakday. (Tandir)²

47. O`tirishi mulladay,

Qichqirishi tayloqday. (Samovar)³

Birinchi topishmoqning javobi tandir, ikkinchisi esa samovar javobli topishmoq bo`lib, har ikkala topishmoqda o`xshatilmishdan tashqari, asos va vosita qo`llanilgan. Buyumlarning belgisi va harakati bir-biriga qiyoslanib, vosita -dek, -day qiyoslov-chog`ishtiruv qo`shimchasi qo`llanilyapti. Yana o`xshashlik jihati shundaki, har ikkalasida ham asos sifatida ranglar qatnashyapti: qizil, sariq, qora.

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari-B.42.

² O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014.-B.150.

³ O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014.-B.151.

Ko`chim eng ko`p ishlatiladigan badiiy vositalar jamidir. Ko`chim so`zni ko`chma ma`noda qo`llash yoki narsa hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihat bilan shularga o`xshaydigan boshqa narsa hodisalarga ko`chirish san`atidir.

48.Oltin kuzdek mavjlanar,

Tosh bag`ir u yondirar. (Olov)¹

Oltin kuz, tosh bag`ir kabi iboralar topishmoqni ta`sirchan qilishi bilan bir vaqtda, uning xususiyatini bildirib, javobini oson topilishiga zamin yaratgan.

Adabiyotshunoslikda ko`chimning majoz, istiora, ramz, timsol singari ko`rinishlari mavjud. Majoz topishmoqlarda o`quvchiga topilishi zarur bo`lgan narsalarga xos belgi bilan ifodalanishidir. Bunda narsalarga xos xususiyatlarning hayvon obraziga ko`chirilishi misol bo`la oladi. Quyidagi topishmoqlar shular sirasiga kiradi:

49.Qizil sigir qora sigirning

Qornini yalaydi. (Olov va qozon)

50.Qora ho`kiz toqqa chiqdi,

Qizil ho`kiz uyda qoldi. (Tutun va olov)

51.Oq echkim ichi yo`q,

Suyagi yo`q, go`shti yo`q,

O`zi shiliq-shiliq etadi.

Yumalab yerda yotadi. (Mesh)

52. Buxorodan kelgan lo`k,

Qo`lga borib cho`k. (Oftoba)²

Keltirilgan har bir uy-ro`zg`or buyumlari ifodalangan topishmoqlarda majoziy ma`noda qo`llanilgan uy hayvonlari keltirilgan. Hayvonlar tilda ifodalangan.

Ko`chimning ko`p ishlatiladigan ko`rinishlaridan biri **istiora**dir. Istiora-arabcha “qarzga olish” degan ma`noni anglatar ekan, unda biror bir narsa-

¹ O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent,2014.-B.147.

² Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti,1981.-B.137.

hodisaga xos xususiyatlarni boshqa narsa-hodisaga ko`chirish orqali badiiy ma'no ifodalanadi.

53. Qilich uchi yaltiroq. (Sham)

54. G`ishim yo`lda yo`rgalar,

Yurgan yo`li oqarar (Sovun)

55. Qora qulim uy qo`rir (Qulf)¹

Quyidagi o`xshatilmishlar ma'nosiga ko`ra metaforaga juda yaqin tursada, ular orasida ichki mantiqiy bog`lanish, yaqinlik, shuningdek, vazifaviy umumiylik borligi bilan istioradan ajralib turadi. Adabiyotshunoslikda, istiora tashbeh san'atidan kuchliroq sanaladi. Mubolag`a yo`li bilan yaratilgan topishmoqlar ham anchagina:

56. Bir chuqurda ming chuqur (Angishvona)

57. O`zi bir qarich,

Soqoli ming qarich (Ip-igna)²

Yuqoridagi topishmoqlardan ma'lum bo`ladiki, mubolag`a ma'nosini ifodalovchi ko`pgina uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlari sonlar ishtirokidagi topishmoqlar hisoblanadi. Ular ma'noni kattalashtirishga, kuchaytirishga xizmat qilmoqda, biroq hayratga soluvchi bir qator topishmoqlar borki, ular tanlab, saralab olingan so`zlar orqali tuzilgan.

58. Bir shaharni bir qora hakka qo`riqlaydi. (Qulf)

59. Bir bosh bug`doy uy to`ldirar. (Chiroq)

60. Qulog`i qornida,

Boshi yo`q. (Qozon)³

Topishmoqlar javobiga xos xususiyatlarni yanada oshirib tasvirlashda mubolag`alardan foydalanilgan. Shuningdek, klassik adabiyotning asosiy ko`rinishlaridan biri tazod ham topishmoqlarda qo`llanilib, narsalarning belgi-xususiyat va holatini yorqin va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi:

61. Yotsa turmas,

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari. -B.35.

² Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1981. -B.132

³ Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1981. -B.133.

Tursa yotmas. (Qop)

62.Katta xotin uy poylaydi,

Kichkina xotin yo`qlovga ketadi. (Qulf, kalit)¹

Birinchi – qop javobli topishmoqda ham, ikkinchi qulf, kalit javobli topishmoqda ham, qarama-qarshi qo`yilgan ikki tomon ayni paytda uzviy ravishda bir-biriga bog`lanib keladi. Birinchi topishmoqda tazod san`atini shakllantiruvchi so`zlar: yotsa-tursa so`zlari, keyingi topishmoqda esa katta-kichkina va poylaydi (bu yerda bir joyda o`tiradi ma`nosida) hamda ketadi kabi so`zlar ishtirok etyapti.

Uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlarida narsalardagi doimiy sifatlar (epitetlar)ni aytish orqali yashirinib yotgan o`sha narsalarni o`zini aniqlash muhim rol o`ynaydi. Epitetlash uslubida narsalarnig har bir xususiyati shunday sifatlanadiki, o`quvchi uni ko`z oldiga keltiradi, topishmoqning javobini topishga zamin yaratiladi.

63.Kichkina mitti,

Echkini yiqitdi. (Pichoq)

Pichoq javobli topishmoqda uning shakli va harakati sifatlanmoqda. Shuni unutmaslik lozimki , “uy-ro`zg`or buyumlarida ifodalanayotgan harakat ikki xil bo`ladi” deydi Z. Husainova.²

Topishmoqda ko`p hollarda uy-ro`zg`or buyumlarini tasvirlashda uning mehnat faoliyatidagi harakat va holati tasvirlanadi.

64.Ko`kkina ko`zim,

Qurt-qurt kavshaydi. (Qaychi)

65.Bir ko`zli kampir,

Ko`ylakka gul tikar. (Igna)

66.Og`ilda besh barmoq,

Ishi xas-po`sh to`plamoq. (Panshaxa)

67.Urdim gup etdi,

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari.-B.35.

² Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. –Toshkent,1966.-B.212.

Yer tagiga kirib ketdi. (Ketmon)¹

Yuqoridagi topishmoqlar xalq og`zaki ijodining shunday tili tushunarli o`xshatishlari bilan ifodalanadiki, topishmoq javobi bilan uyg`unlik hosil qilib, xalqimiz turmush tarzi-yu mehnat faoliyatini yaqqol namoyon eta olgan.

Ba`zi topishmoqlarda esa narsalarning oddiy harakati va uning darajasi belgilanadi:

68.Kechasi turadi,

Kunduzi yotadi. (Eshik zanjiri)

69.Kichkina fildi,

Menga qarab kuldi. (Oyna)

70.Yuraveradi, yuraveradi,

Yo`li ko`paymaydi. (Beshik)²

Keltirilgan tahlillar uy-ro`zg`or buyumlariga oid topishmoqlarning ma`nosiga ko`ra tasniflashga misol bo`la oladi.

Ma`lumki, topishmoqlar shakli va tuzilishiga ko`ra ham bir necha turlarga bo`linadi. Shakliga ko`ra uy-ro`zg`or topishmoqlari ham she`riy ham nasriy turlarga bo`linadi. Barcha topishmoqlar kabi uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlari ham ko`pchiligi she`riy shaklda tuzilgan. Eng kichik janrlardan biri bo`lishiga qaramay, topishmoqlar ham o`z qofiyasi va radifiga ega. Nazmda qo`llaniladigan vaznlar har doim uchramaydi. Bunga sabab xalq topishmoqlari tili sodda, tuzilishi jihatdan ko`p hollarda murakkab bo`lmaydi.

71.Ko`ylagi yo`q, tarki bor,

Daraxt emas, bargi bor,

Odam emas, gapi bor. (Radio)

72.Shiftdan bizga qarab turar,

Nurlarini tarab turar. (Lampochka)³

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari.-B.32.

² O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent,2014.-B.147.

³ Nabijon Ermatov .To`qson To`qqiz Topishmoq to`plami. Toshkent,2012.-B.24.

Har ikkala topishmoqda ham qofiya (tarki, bargi, gapi va qarab, tarab) ham radif (bor, bor va turar, turar) nazmning asosiy unsurlari qoʻllanilgan. Qofiya va radif soʻzlar ohangdorligini taʼminlagan.

Nasriy shakldagi uy-roʻzgʻor buyumlari qatnashgan topishmoqlar ham kam boʻlsa-da uchraydi:

73. Taq-taq tomdan qor yogʻar. (Elak)

74. Belini bogʻlab uy oʻrtasida oʻynar. (Supurgi)

75. Labi labimga tegsa ogʻzim kuyadi. (Piyola)¹

Topishmoqlar tuzilishiga koʻra ikki, uch, toʻrt va undan ortiq misralardan iborat. Uy-roʻzgʻor buyumlarini ifodalagan topishmoqlar asosan, ikki va toʻrt misrali topishmoqlardir.

a) Ikki misrali topishmoqlar:

76. Qorni qopday

Boʻyni ipday. (Xum)

77. Kichkina hayatcha,

Ichi toʻla kulcha. (Tandir)²

b) Toʻrt misrali uy-roʻzgʻor buyumlari ifodalangan topishmoq:

78. Chin qushim, chinni qushim.

Chin tepaga qoʻndi qushim.

Tumshugini yerga berib,

Xalqqa salom berdi qushim. (Choynak)³

Bu turdagi topishmoqlarda uch va undan ortiq misrali topishmoqlar ham mavjud:

79. Tosh togʻora,

Tepasi nogʻora,

Oʻrtasida bir dasta gul. (Chiroq)

80. Men ajoyib bir askar koʻrdim,

¹ Oʻzbek xalq topishmoqlari. Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014. -B.153.

² Husainova Z. Topishmoqlar. Toshkent Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1981. -B.113.

³ Mirzayev T, Safarov O, Oʻrayeva D. Ozbek xalq ogʻzaki xrestomatiyasi. -Toshkent, 2008. -B.216.

Boshi uzra quvvati.

Ko`p quvvati, yo`q qadri qimmat. (Gugurt)

81. Suvli yerga aslo bormas,

Cho`lni paymol qilmay qo`ymas. (Gugurt)¹

Shuningdek, topishmoqlar bir va undan ortiq komponentli bo`ladi, ya'ni topishmoqda yashiringan narsa javobi bitta yoki bir nechta bo`ladi. Odatda bir komponentli topishmoqlar ko`p uchraydi.

82. Bir marta osmonga ketar,

Andin so`ng yerga kirib ketar. (Ketmon)

83. Do`stimning bo`yi yetgan,

Yalqovdir o`ta ketgan,

Ishlamas o`z o`zidan

Ip o`tkazib ko`zidan

Boshlasangiz ish qilar

O`rgatib sizga hunar. (Igna)

Uy-ro`zg`or buyumlari tasvirlangan topishmoqlar ichida metaforik yo`l bilan bir necha javoblar yashiringan bo`lsa-da, asosiy qo`yilgan masala topiladi.

84. Yuki bo`lsa yuradi,

Yuki bo`lmasa turadi. (Soat)

Javobi soat bo`lgan topishmoqning yana bir yashiringan predmeti bor, ammo zarur emas, shuning uchun yechimi topilmaydi. Bu yuki so`zi bo`lib, uning ma'nosi soat millaridir.

Topishmoqda birdan ortiq javoblar ham yashiringan bo`lishi mumkin. Ular ikki yoki ko`p komponentli topishmoqlar deb nomlangan:

85. O`zi bir kilo,

Yuki o`n kilo. (Paqir va suv)

86. Olisdan jangir- jungur,

Yaqindan oddiy temir. (Qulf, kalit)

¹O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014.-B.131.

- | | |
|---|--|
| <p>87. Uzun- uzun arg'amchi,
 Buni toping, dilbarim!
 Undan uzun arg'amchi,
 Buni toping, dilbarim!
 Opirmog'u sopirmoq,
 Buni toping, dilbarim!
 Igna uchi yaltiroq,
 Buni toping, dilbarim!</p> | <p>Uzun- uzun arg'amchi,
 Yo'l degani emasmi?
 Undan uzun arg'amchi,
 Daryo degani emasmi?
 Opirmog'u sopirmoq,
 Un degani emasmi?
 Igna uchi yaltiroq,
 Chiroq degani emasmi?</p> |
|---|--|

Uy-ro'zg'or topishmoqlarini zamonaviy va an'anaviy turlariga qarab tasniflashimiz mumkin. An'anaviy topishmoqlarda ko'proq arxaik so'zlar ishlatilishi bilan bir qatorda millatimiz turmush tarzi, tarixi va madaniyati yaqqolroq ma'lum bo'ladi.

88. Bizning uyda to'rt kampir,
 To'rttovi ham mard kampir. (Savag'ich)
89. Charchamas kampir ko'rdim, yolg'iz oyoq
 Og'ziga tashlab olgan cho'pdan tayoq.
 Yurgan sari belbog'ini quvvatlaydi,
 Beribdi unga go'zallikni ayamayoq. (Urchuq)

Fan, texnika, ilm-fan rivojlanishi yangi predmetlar uyimizga kirib kelishi zamonaviy topishmoqlarni paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

1. G'ijim bo'lsa ko'ylak va shim,
 Yuzi qizib tekislar jim. (Dazmol)
2. Neni desang yozib u
 Uzun tasmaga joylar,
 O'zing bo'lib qaytaradi
 O'tsa ham yillar oylar. (Magnitafon) ¹

Umuman olganda, o'zbek topishmoqlari an'anaviy va zamonaviy, shakliga ko'ra she'riy va nasriy, tuzilishiga ko'ra shakl, mazmun, kompozitsion qurilishi bilan ajralib turadi. Topishmoqlarda uy-ro'zg'or predmetlarini aks

¹ Nabijon Ermatov .To'qson To'qqiz Topishmoq to'plami.-Toshkent,2012.-B.23.

ettirishda badiiy tasvir vositalari istiora, ko`chim, tashbeh hamda o`xshamish, o`xshatilmish, asos va vosita singari unsurlari, ko`chimning majoz, istiora, ramz, timsol kabi ko`rinishlari, mubolag`a, tazod san`ati, epitetdan unumli foydalanilgan bo`lib, shu jihatlari bilan o`ziga xoslik kasb etgan.

2.3. Ingliz va o`zbek uy-ro`zg`or buyumlari tasvirlangan topishmoqlardagi umumiylik va xususiylik

Topishmoqlar garchi folklorning eng jajji turiga mansub bo`lsa-da, uning qiziqarliligi qadimdan bugungi kunga qadar barcha xalqlarni o`ziga jalb etib kelmoqda. Xalqaro janr sifatida tanilgan topishmoqlar o`zbek xalqi uchun ham ingliz xalqi uchun ham birdek ahamiyatlidir. Bitiruv malakaviy ishimizda avval ingliz va o`zbek topishmoqlariing genezisi bilan tanishgan bo`lsak, keyin ishimizning predmeti hisoblangan uy-ro`zg`or buyumlari ifodalangan topishmoqlarga xos xususiyatlari tahlilini keltirdik.

Har ikkala xalqda ham o`ziga xos uy-ro`zg`or buyumlari mavjud bo`lib, ular o`sha xalqning ijtimoiy hayot tarzi bilan bog`liqligi sababli ular ifodalangan topishmoqlar aksariyat hollarda bir-birini takrorlamaydi, o`ziga xosliklarga ega. Ijtimoiy hayot tarzi bilan bir qatorda madaniyati, tarixi, geografik o`rni, dini ham bunga sabab bo`ladi. Quyidagi topishmoqlar ingliz qadimiy an`anaviy buyumlari va o`zbek qadimiy an`anaviy buyumlariga misol bo`ladi:

1. A youth came along to where he knew
she stood in a corner. Forth he strode,
a vigorous young man, lifted up her own
dress with his hands, thrust under her girdle
something stiff as she stood there;
worked his will; both of them shook.
A thane hurried up, useful at times,
a capable servant; nonetheless he grew tired
from time to time, though strong at first,

there began to grow what often good men
love heartily and buy with money. (Churn)¹

2. Osti lop-lop,

Usti lop-lop,

O`rtasida kumush qo`lqop. (Rapida)²

Berilgan topishmoqlarda har bir xalqning faqat o`zigagina xos bo`lgan buyumlari jumboqlanganligini ko`rishimiz mumkin. “Churn” qadimda ingliz ayollarining dastyor buyumi hisoblanib, undan sutni qayta ishlov berib qaymoq olishda ishlatishgan, shu sababli ushbu predmet topishmoqda aynan “she” olmoshi bilan tariflangan. Ayollarning sevimli buyumi ekanligini u haqidagi alqovlardan bilish mumkin. O`zbek xonadoniga xos shirmoy nonlarni tandirda pishirishda qo`llaniladigan buyum rapidadir. Bu milliy uy-ro`zg`or buyumi hisoblanib, ushbu topishmoqda faqat uning shakli jumboqlangan. Tandırğa nonlarni urushda ishlatilgani uchun issiq bo`ladi, shu sababli uning issiqligini tasvirlashda taqlid so`z “lop-lop” jumllaridan foydalanilgan.

3. My beak is downward and low I move

and dig in the ground. The hoar foe of the forest

directs my movements; and so my master

goes bent over, the guide at my tail,

drives across the field, pushes me and crowds me,

and sows in my swath. I go sniffing along,

brought from the woodland, stoutly fastened,

borne on a wagon. I have many strange ways.

I leave green on one side and black on the other.

Driven through my back there hangs beneath

a well-sharpened point; on my head another,

firm and forward-moving. What I tear with my teeth

¹ en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle

² O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014

falls to the side, if he serves me well,

my lord who behind me heeds me and guides me. (A plow)¹

4. Egri xo`jam, bukri xo`jam,

Taqiyasi temirdan xo`jam. (Omoch)²

Keltirilgan topishmoqlarning har ikkalasida ham qadimiy mehnat quroli omoch - “a plow” tasvirlanyapti. Hozirgi kunda garchi bu buyumdan dehqonchilikda foydalanilmayotgan bo`lsa-da, har ikkala millatda mavjud bo`lgan ushbu buyumni o`tmishda qay darajada qadrlashganligi yuqorida berilgan topishmoqlarda o`z isbotini ko`rsatyapti. Ikkala topishmoqning badiiy vositasi ham bir xil, ya`ni o`zbek adabiyotshunosligida shaxslantirish (majoz), inglizlarda esa “personification” uslubi qo`llanilayotgani bu topishmoqlarning ham tarixan ham uslub jihatdan o`xshashligini ko`rsatsa, hajmi, qaysi shaxs ishtirokiga ko`ra farq qilyapti. Ingliz topishmog`ida buyum nomidan holati, harakati, ish jarayoni va shakli metaforik o`xshatish yordamida so`zlanyapti. Bu kabi topishmoqlar enigma topishmoq turiga mansub hisoblanadi. Keyingi topishmog`imiz Osiyoda ham asosiy dehqonlar quroli bo`lgan omochga bag`ishlangan, omoch yordamida yerdan mo`l hosil olishgani uchun uni “xo`jam” deb atashgani bejiz emas.

Enigma va conundrum topishmoq turlari faqat ingliz tiliga xos bo`lib, o`zbek tilida ushbu atamalar qo`llanilmaydi. Ammo ularning ekuvalentlari mavjud. Enigmali topishmoq metaforik topishmoqlar bilan o`xshash va yuqoridagi omoch javobli o`xshash topishmoqlar ham shu jihat bilan umumiylik kasb etgan.

5. Juda tiniq suv kabi

Yaraqalaydi ko`zingga.

Qanday bo`lsang shu holda

Ko`rinasan o`zingga. (Ko`zgu)³

¹ en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle

² O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014. -B.150.

³ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari.

6. This item can be used

To see what is right there

An evil queen used hers

To find out who's most fair. (A mirror)¹

O'zbek xalq topishmog'idagi 3-4-misralar ko'zgu vazifasi haqidagi so'zlar bilan berilgan ingliz topishmog'idagi 1-2 -misralarning umumiy ma'nosi o'xshash, ya'ni, ikkalasida ham ko'zgu aslini ko'rsatishi aytilyapti. O'zbek tilidagi topishmoqning dastlabki misralarida uning shakli haqida ma'lumot berilyapti. Ingliz tilidagi topishmoqdagi "an evil queen" so'zlari ingliz milliy ertagi "Oppoqoy" ("Snow White") dan olingan. Bunday o'xshatma so'zlar faqat shu xalqqa xos hisoblanadi.

7. G'ijim bo'lsa ko'ylak va shim,

Yuzi qizib tekislar jim. (Dazmol)²

8. If you dropped this on your foot

You would find it really hurts

It's usually heated up

And is used to flatten shirts. (An iron)³

Dazmol javobli ushbu topishmoqlarning o'xshashlik tomoni har ikkala topishmoqda ham ularning vazifasi "tekislash" ekanligi aytiladi. Ingliz topishmog'idagi 3- misrada kichik holatni tasvirlash orqali uning shakli, qay darajada o'g'irligi nazarda tutilgan. O'zbek topishmog'ida shaxslantirish san'ati "yuzi qizargan" so'z birikmasi orqali ifodalangan. Ikkinchisida esa hodisa va sifatlar topishmoqni shakllantirayotganini ko'rishimiz mumkin.

9. Suvga tegsa, qochadi,

Qo'lda ko'pik sochadi...

Qizil, sariq, pushti, ko'k,

U kirmagan eshik yo'q... (Atir sovun)⁴

¹ <http://riddles-for-kids.org/>

² Husainova Z. Topishmoqlar // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. -T., 1981.-B.121.

³ <http://riddles-for-kids.org/>

⁴ Husainova Z. Topishmoqlar // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. -T., 1981.-B.139.

10. When I mixed with water

Then I can perform magic

As I make dirt disappear

Leaving things clean is my trick. (A soap)¹

Har bir uy xo`jaligida ishlatiladigan tozalovchi vositalardan biri sovun haqidagi topishmoq ham ma'no ham shakl jihatdan o`xshashdir. Topishmoqlar ikki komponentli she'riy shakldagi topishmoq bo`lib, har ikkalasida ham qofiyadosh so`zlar ulardagi bo`yoqdorlikni kuchaytirgan. O`zbek va ingliz tilidagi ushbu topishmoqlarning 1-misrasida suv bilan ishlatilishi aks ettirilgan. Quvonch bag`sh etuvchi sovun ko`pikchalari tasviri esa har ikkala topishmoqning keyingi misralarida o`z ifodasini topgan. Ularning farqli tomoni shundaki, ingliz topishmog`i 1-shaxsda, ya'ni sovunvoyning o`z tilidan aytilgani ingliz uy-ro`zg`or topishmoqlariga xos xususiyatlardan biridir. Aksariyat ingliz topishmoqlari buyumlarning o`z tilidan tasvirlanganiga guvoh bo`ldik. Birinchi topishmoqda esa o`zbeklarga xos tozalik ulug`lanib, "sovun kirmagan eshik yo`q" iborasi berilgan.

Shunday uy-ro`zg`or buyumlari mavjudki, ular har ikkala xalq uchun birdek vazifa bajaradi. Shuning uchun ular haqidagi topishmoqlar ham juda o`xshash, hatto bir xil tasvirlarga ega uy-ro`zg`or buyumlarini ham uchratishimiz mumkin.

11. Bir ko`zli kampir,

Ko`ylakka gul tikar

12. Kichkina kelinchak,

Sochpopugi qulochdek. (igna va ip)²

13. Old Mother Twitchett had but one eye,

And a long tail which she let fly;

And every time she went over a gap,

She left a bit of her tail in a trap. (Needle and thread)¹

¹ <http://riddles-for-kids.org/>

² Husainova Z. Topishmoqlar // O`zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. T., 1988.-B.134.

Igna va ip javobli ikki tildagi topishmoqlardagi o`xshashlik shundaki, tikuv quroli igna har ikki tilda ham “bir ko`zli qari kampir” deb tasvirlangan. Ip esa o`zbek topishmog`ida sochpopukka o`xshatilgan bo`lsa, uning uzunligi quloch o`lchov birligi<sup>2</sup> ya`ni, ikki qo`lning o`rta barmoq uchlari orasidagi masofa uzunligigacha teng deyilyapti. Keyingisida esa, ip uzun dumga o`xshatilgan. Ignaning nozikligini tasvirlashda uni kichik kelinchakka o`xshatishgan. Topishmoqlardan ko`rinib turibdiki, buyumlarga xos xususiystlar garchi bir xil bo`lsa-da, milliylik har birida o`zgacha tarzda berilgan.

14. It dresses other people,

But goes naked itself. (A needle)³

15. Hammaga to`n tikadi,

O`zi yalang`och. (Igna)⁴

Keltirilgan topishmoqlar go`yo bir-biridan tarjima qilib qo`yilganday tuyuladi. Biroq ular har xil davrda yaratilgan, ingliz xalqi uchun ham o`zbek xalqi uchun ham birdek mashhur topishmoqlardan biridir.

Milliylikga ega bo`lmagan anjomlar ham borki, ular har ikki tilda aynan bir xil talqin etiladi, bir xil vazifani bajaradi.

16. Kichkina itcha hurmaydi,

Tishlamaydi, uyga qo`ymaydi. (Qulf)⁵

17. It doesn't bark, it doesn't bite,

But still won't let you in a house. (A Lock)⁶

Qulf “a lock” javobli topishmoqlarda itga xos xususiyat: uyni qo`riqlash, begonalarni yaqinlashtirmaslik kabilar sifatlangan. Bir qarashda juda o`xshash bu topishmoqlarning farqli jihati shundaki, o`zbek tilidagi topishmoqda metafora “kichkina itcha” so`z birikmasi orqali ifodalanganligidadir.

¹ <http://www.mamalisa.com>

² <http://uz.m.wiktionary.org>

³ www.catb.org/esr/riddle-poems.html

⁴ O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014.-B.147.

⁵ O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2014.-B.140.

⁶ www.catb.org/esr/riddle-poems.html

Zamonaviy topishmoqlarga bag`ishlangan ingliz va o`zbek topishmoqlarining ham o`xshashlik va farqli jihatlari talaygina.

18. Chiqsang oydek yarqirab,

Jon rohati hammomdan.

Pok badanga pok kiyim –

Tayyorlovchi polvonman.

Kiyimlarga hammomman. (Kir yuvish mashinasi)¹

19.If you put stuff in me,

It'll look like new!

Don't forget to dry the stuff

When I'm through. (Washing machine)²

Zamonaviy buyum hisoblangan kir yuvish mashinasi har bir davlatda bir xil va aynan bitta vazifani bajarsa-da, topishmoqlar shaklan va ma'no jihatdan farq qilyapti. O`zbek topishmog`ida she'riy vazn va “polvonman, hamomman” metaforik so`zlari topishmoqni bezab turgan bo`lsa, poklikdan sevinish ma'nosini anglatuvchi “oydek yarqirab, pok badan, pok kiyim” so`zlari o`zbek xalqi hayoti va turmush tarzidan kelib chiqqan. Ingliz topishmog`ida esa buyum odatdagidek birinchi shaxsda berilib, unga xos xususiyatlar bilan birga kirni yuvishdagi holat “put me”, “dry the stuff” kabi iboralar orqali bildirilgan.

20.Mashinam bor, mo`jizakor,

Faqat yurmas, turar uyda.

Foydasi ko`p, oziq-ovqat,

Buzulmasdan turar unda. (Muzlatgich)³

21.This appliance

Keep food nice

It turns water

Into ice. (A refrigerator)⁴

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari.

² <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags/>

³ Nabijon Ermatov. To`qson To`qqiz Topishmoq to`plami.-Toshkent,2012.-B.15.

⁴ <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags/>

Har ikkala topishmoqda ham topishmoqning javobi boʻlgan muzlatgichning vazifasi asosiy tushuncha sifatida tasvirlanyapti. Ingliz topishmogʻida “keep food nice” iborasi berilayotgan boʻlsa, oʻzbek topishmogʻida uning vazifasi oxirgi misralarda “oziq-ovqat buzilmasdan turar” gapi bilan izohlangan.

Aksariyat zamonaviy ingliz uy-roʻzgʻor buyumlari topishmoqlari bir yoki ikki misrali boʻlib, koʻp hollarda savol-topishmoq turiga mansub boʻladi. Bu jihati bilan ular oʻzbek topishmoqlaridan farq qiladi. Chunki oʻzbek xalq topishmoqlarida bu kabi shaklga ega uy-roʻzgʻor buyumlari topishmoqlari kam uchraydi.

22. What has three hands but only one face? (A clock)

23. As I clean I get dirtier. What am I? (Napkin)

24. When you reach this point in the road, do you feel hungry? (Fork)¹

25. Nima doim oʻz oʻrnida turadi. (Soat)

26. Yuki boʻlsa yuradi, yuksiz toʻxtaydi. Nima ekan u? (Osma soat)²

Baʼzan folklorning dramatik, epik, lirik va kichik janrlariga xos xususiyatlar qorishib ketganligini har ikkala tilda ham uchratishimiz mumkin. Hazil mutoyibaga xos xususiyatlar asosan latifa janriga xos boʻlsa, bu xususiyatni uy-roʻzgʻor buyumlari topishmogʻida ham uchratish mumkin. Ingliz tilida bu asosan “pun” stilistik vositasi qatnashgan topishmoqlarda uchrashini oldingi rejalarimizda koʻrgandik. Shuningdek stilistik vositalarsiz hazil shaklidagi topishmoqlar ham uchraydi:

27. There is an ancient invention still used in some parts of the world today that allows people to see through walls. What is it? (a window)

28. There are several different kinds, but the one you pick doesn't do its job. (Lock)

29. Drop me and the world will shatter,

¹ <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags>

² www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. “Oʻzbek topishmoqlari”

And you can find me,
Where you empty your bladder.
What I am? (A mirror)¹

30. Qanday idishni sira to'ldirib bo'lmaydi? (Teshik idishni)

31. Qanday soat bir sutkada vaqtni ikki marta to'g'ri ko'rsatadi?
(To'xtagan soat)

32. Suv qayerda ustundek turadi? (Quduqda)

Topishmoqlar shaklan maqollarga o'xshab ketadi. Har ikkalasi ham she'riy shaklda berilgan. Qofiya va radif kabi she'riy unsurlar qatnashadi. Ammo mazmunan ular boshqa boshqa ma'nolarni tashiydi. Shuningdek, har ikkalasi ham xalqning ajralmas madaniy qismi bo'lib, topishmoqlar insonlarni topag'onlikka undasa, maqollar mulohaza qilishga da'vat etadi. O'zbek topishmoqlarning maqollar bilan o'xshashligi 5-sinf adabiyot kitobida keltirilgan bo'l-sa, D. Abrahamsning "Everyday life: A Poetics of Vernicular Practices " kitobida ingliz topishmoq va maqollari o'xshashligi va farqlari tahlil qilingan.

Ertak janri bilan ushbu kichik janrning ham bog'liqligi ahamiyatlidir. Ya'ni ingliz topishmoqlari ham o'zbek topishmoqlari ham ertak janri bilan bog'likligiga ko'ra 2ga bo'linadi:

- a) ertak topishmoqlar;
- b) topishmoqlar qatnashgan ertaklar.

"Uzuklar hukmdori" asarida berilgan topishmoqlar bunga misol bo'la oladi.

33. My life measured in hours.

I serve by being devoured thin,
I am quick, fat I am slow,
Wind is my foe, What I am? (Candle)²

O'zbek xalqining "Alpomish" dostonida, "Podsho bilan donishmand chol" ertagida bunga guvoh bo'lishimiz mumkin.

¹ <http://riddles-for-kids.org>

² J.R.Tolkien , The Hobbit: " Riddlers in the dark".1940.-P.100.

O'zbek va ingliz uy-ro'zg'or buyumlari ifodalangan topishmoqlarning dastlabki yaratilish tarixida ham o'xshashliklar bor. Ingliz topishmoqlari qadimdan necha yuz yillar davomida ingliz xalqi tomonidan kechalari gulxan atrofida topqirlik va zukkolikni sinash uchun aytilgan bo'lsa, o'zbek topishmoqlari qish kechalarida yoxud qo'l mehnati bilan band bo'lgan bir guruh insonlar tomonidan aytilishi odat tusiga kirgan. Shuning uchun ham bu turdagi topishmoqlarni har bir xalqning urf-odati-yu madaniyatidan ayro tasavvur etib bo'lmaydi.

Ingliz va o'zbek topishmoqlarini qiyoslab o'rganish davomida har bir xalqning o'ziga xos topishmoq aytish usuli borligi bilan bir qatorda, ular o'rtasida bir necha o'xshashliklarga ham guvoh bo'ldik. Topishmoq aytish usulining farqli va o'xshash tomonlaridan tashqari, uy-ro'zg'or buyumlarining faqat bir xalq uchun xos bo'lganlari va har ikkala xalqda mavjud bo'lgan buyumlarini tahlil qildik. Topishmoqlarga berilgan metaforik o'xshatishlar orqali ingliz va o'zbek xalqiga xos xususiyatlar namoyonligini kuzatdik.

XULOSA

Topishmoq janri har ikkala tilda ham: ingliz va o'zbek tilida folkorning kichik janriga mansub. U xalqaro janr sifatida talqin etilarkan, har bir xalqning aql-idrokini rivojlantirib, dunyo qarashini o'zgarishda, madaniyatini tarannum

etishda katta ahamiyatga ega. Uning insoniyat sivilizatsiyasi bilan bir davrda paydo bo`lganiga tarix guvoh. Asrlar davomida rivojlanib, sayqallanib kelgan bu janr - ingliz xalqida ham o`zbek xalqida ham birdek boyitilgan va o`rganilgan. Bitiruv malakaviy ishimizda topishmoqlarni va uning uy-ro`zg`or buyumlariga oid jumboqlarini tahlil qilib o`rganarkanmiz, ikkala tildagi bu sohaga xos umumiylik va xususiyliklarga guvoh bo`ldik. Tadqiqotimiz mobaynida quyidagi xulosalarga keldik:

1. a) ingliz xalqi esa uzun kechalarda gulxan atrofidagi bayramlarda quvnoqlik bag`sh etish yoki bilimlarini sinash uchun o`yin sifatida undan foydalanishgan.

b) qadimda o`zbek xalqi qish va kuz kechalarida g`o`za chuvish, charx yigirish, ko`rpacha qavish kabi qo`l mehnati bilan bajariladigan turli tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan.

2. a) ingliz topishmoqlarida nasrda yozilganlari ko`pchilikni tashkil etadi, zamonaviy topishmoqlar ko`plab uchraydi. Asosan savol-topishmoqlar uy-ro`zg`or buyumlari topishmoqlarida ko`p qo`llanilgan.

b) o`zbek tilidagi topishmoqlar asosan she`riy shaklda, kam hollarda nasrda ham uchraydi, an`anaviy topishmoqlar ko`pchilikni tashkil etadi. She`riy shaklda bo`lganligi uchun unda she`rga xos xususiyatlar mavjud, ammo har doim ham vazn va radif uchramaydi, bir va ko`p komponenli topishmoqlar turi mavjud.

3. a) Ingliz tilida gap maqsadiga ko`ra topishmoq asosan so`roq gapda beriladi, 1-shaxsda ifodalangan uy-ro`zg`or buyumlari o`zbek tilidagiga qaraganda ko`proq.

b) o`zbek tilida esa uy-ro`zg`or buyumlariga oid topishmoqlarning so`roq shaklidagisi darak gap shaklidagisidan ancha kam qo`llanilganini ko`rdik. Bu tildagi topishmoqlarning aksariyati 3-shaxsda berilgan.

4. a) Ingliz topishmoqlarida uy-ro`zg`or anjomlarini jumboqlashda metafora, "simile", "pun", "paradox", "personification" kabi stilistik vositalardan foydalanilgan.

b)O'zbek topishmoqlarida esa ko'chim, majoz, timsol, mubolag'a, qarshilantirish kabi badiiy san'atlar o'z aksini topgan.

5. Ingliz va o'zbek topishmoqlari shakl, tur va uslub jihatdan qiyoslangandan tashqari ularda ifodalangan buyumlar, ularning qo'llanishiga ko'ra ham bir necha to'xtamlar mavjudligini namoyon etdi. Shunday uy-ro'zg'or buyumlari borki, ular faqat bir xalqqa mavjud, o'sha xalqqa xosdir. "Riding-well", "churn" kabi buyumlar qadimda faqat ingliz xalqiga xos bo'lsa, "rapida", "savag'ich" kabilar o'zbek xalqi turmush tarzidan darak beradi. Shuningdek, har ikkala xalqda mavjud bo'lgan buyumlarning topishmoqlarini tahlil qilish chog'ida shunday topishmoqlar uchradiki, bir xil buyumga har ikkala xalqda bir xil go'zal metaforik o'xshatish qilinganligi ayonlashdi. Biroq bunday metaforik o'xshatishlar ko'pchilikni tashkil etmadi. Chunki har bir xalqning uy-ro'zg'or buyumi o'sha xalqning tarixi, madaniyati va hayot tarzi bilan chambarchas bog'liqdir, shuning uchun ingliz va o'zbek uy-ro'zg'or buyumlari ifodalangan topishmoqlarda mutanosib va nomutanosib jihatlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori.-T., 2012. "Ma'rifat" gazetasi № 99.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.-T.:Ma'naviyat, 2008. 174 b.

3. Аристотел. Поетика. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 71б.
4. Ҳусаинова З. Ўзбек халқ топишмоқларининг асосий хусусиятлари ва замини: Филол. фанлари номзоди. дисс. – Тошкент: 1967.
5. Ҳусаинова З. Топишмоқлар \ \ Ўзбек фолклор очерклари. Уч томлик биринчи том. – Т: 1981, -364б
6. Хусаинова.З. Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: -1996
7. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari. –Toshkent,1991. 350 b.
- 8.Anja Goritzka “History of the Riddle” article.2015. 20 b.
9. Anchor Taylor. English Riddles from Oral Tradition. University of California Press,1995. 951b.
10. Ashuraliyev Elyor. Xalq topishmoqlarining kognitiv strukturasi. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 58 b
11. Hojimatova Mashhura. “Ingliz va o`zbek topishmoqlarining shakl va mazmun jihatidan semantik stilistik tahlili” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi. –Andijon
2014. 84 b.
12. D. Abrahams. Everyday life: A Poetics of Vernicular Practices. University of Pennsylvania Press, 7 juny 2011. 296p.
- 13.Dienhart, John M. A linguistic look at riddles. Journal of Pragmatics. 1999.
- 14.Eleonar Cook. Enigmas and Riddles in literature. Cambridge University Press, 2009. 312p.
15. J.R.Tolkien: The Hobbit: Riddlers in the dark. 1940.
16. Mirzayev T., Safarov O., O`rayeva D. O`zbek xalq og`zaki xrestomatiyasi. – Toshkent, 2008.- 560 b.
17. Nabijon Ermatov. To`qson To`qqiz Topishmoq to`plami. –Toshkent, 2012.- 33b.
18. Oxford Advanced Learner’s dictionary.1980. – 1306 p.

19. J. M. Y. Simpson, Stephen Roud. Oxford Dictionary of Old Folklore. Oxford University Press, Incorporated, 2003. –411p.
20. Oxunjon Safarov. O`zbek xalq og`zaki ijodi. –Toshkent, 2010. -360b
21. Pepicillo W. J and Thomas A. Green. The language of riddles. New Perspectives. –Columbus: Ohio State University Press, 1984. – 169 p.
22. Paul A. Cantor. "A Riddle Wrapped in enigma" article. 2014
23. Razzoqov Z.X, Mirzayev T, Sobirov O, Imomov K. Ozbek xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent, 1980. -303b
24. Riddle of the Sphinx. Penguin Book, 2007. -608b
25. Thai Thi Thu Trang. Investigation into stylistic devices commonly used in riddle. University of Danang, 2011. -25b
26. "The World Book Encyclopedia". USA Press, Q-R Bolume 16, 1995.
27. O`zbek xalq topishmoqlari. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2014. -158b
28. G`oziev E. Umumiy psixologiya. –Toshkent, 2002.
29. en.wikipedia.org/wiki/Riddle
30. en.wikipedia.org/wiki/Exeter_Book#Riddle
31. en.wikipedia.org/wiki/Quiz
32. [http://dspace.library.cornell.edu/bitstream/1813/2271/1/Ontogenesis_of_Meta
phor](http://dspace.library.cornell.edu/bitstream/1813/2271/1/Ontogenesis_of_Meta%20phor)
33. <http://www.catb.org/esr/riddle-poems.html>
34. www.ziyouz.com kutubxonasi. Abduraximov I. M. O`zbek topishmoqlari.
35. www.innovateus.net/innopedia/history-riddles
36. <http://goodriddlesnow.com/riddles/view/428>
37. <http://riddlesandanswers.treasurehuntriddles.org/Tags/>
38. <http://www.mamalisa.com/?t=es&p=1576>
39. <http://riddles-for-kids.org/>

ANNOTATION

Our Graduate Qualification Work is aimed to study the peculiarities of household object riddles in Uzbek and English languages. As being one of the most important types of folklore riddle is considered to be an international genre. Riddles encourage people to see things in different way. They portray

natural phenomena, personified animals and plants, household objects. There are several similarities and divergences in home appliances of English and Uzbek languages.

Household object riddles in Uzbek and English languages are differentiated according to their form and by nature of their content. English riddles include enigmas, conundrums, puzzles, game riddles, charades, old English riddles, contemporary riddles, while Uzbek riddles subdivided into metaphoric riddles, question riddles, riddles included one or more than two components, poetic riddles, prosaic riddles, old and modern Uzbek riddles. In both languages the process is described in a mysterious and sometimes playful way. The differences are seen in defining objects using the word-stock of languages. As well as there are some home appliances which are peculiar for each language.

Riddles play a big role in Uzbek and English folklore genre inspite of divergences in their form and content. It helps to train children's mind, to improve their intellectual skill and always attracts their attention.